

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**BITIRUVCHI KURS TALABASI
MULLOQULOVA ZEBINISOning**

**“PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDAGI
ATOQLI OTLAR”**

mavzusidagi

*5 120 100 –Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016- o‘quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent
KILICHEV B.E.**

Buxoro – 2016

«Ma'qullayman» _____
Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent B.E.Kilichev
 « » _____ 2015-y.

«Tasdiqlayman» _____
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri Sh.N.Ahmedova
 « » _____ 2015-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Mulloqulova Zebinisoning “Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi atoqli otlar”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan **TOPSHIRIQLAR REJASI**

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	Mavzu bo'yicha zaruriy il-miy, ilmiy-metodik material-larni to'plash, o'rganish	sentyabr		
	Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	oktyabr		
	Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarini taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	noyabr		
BMI ustida ishlash	BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	dekabr		
	I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	yanvar		
	II bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	fevral		
	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	mart		
	Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	aprel		
	Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
BMI ni ras-ish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
BMI ni himoya qilish		iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi
Ilmiy rahbar

Zebiniso Mulloqulova
Bayramali Kilichev

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani _____ A.A.Haydarov
«_____» _____ 2016-y.**

**BITIRUVCHI KURS TALABASI
MULLOQULOVA ZEBINISONing**

“PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDAGI

ATOQLI OTLAR” mavzusidagi

***5 120 100 –Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan***

MALAKAVIY BITIRUV ISHI
(2015-2016- o‘quv yili)

Ilmiy rahbar:	filologiya fanlari nomzodi, dotsent Kilichev B.E.
Rasmiy hakam:	filologiya fanlari nomzodi, dotsent Axmedov A.R.

Buxoro – 2016

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 1-yig'ilishi bayonnomasidan
KO'CHIRMA

27-avgust, 2015-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a'zolari

K U N T A R T I B I

*Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig'i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.*

Kafedra qaror qiladi:

4- kurs talabasi Mulloqulova Zebinisoning "Pirimqul Qodirovning "Yulduzli
tunlar" romanidagi atoqli otlar" shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Z.Mulloqulovanning malakaviy bitiruv ishiga
f.f.nomzodi, dotsent Bayramali Kilichev ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig'ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig'ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining 13-yig‘ilishi bayonnomasidan
KO‘CHIRMA

26-may, 2016-y.

**Qatnashdi: kafedraning barcha
a‘zolari**

K U N T A R T I B I

**4-kurs talabasi Mulloqulova Zebinisoning “Pirimqul Qodirovning
“Yulduzli tunlar” romanidagi atoqli otlar” mavzusidagi bitiruv malakaviy
ishining muhokamasi**

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Mulloqulova Zebinisoning “Pirimqul Qodirovning “Yulduzli
tunlar” romanidagi atoqli otlar” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov
himoyasidan o‘tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi,
dotsent A.R.Axmedov tayinlansin.

Yig‘ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig‘ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**Filologiya fakulteti 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchisi Mulloqulova Zebinisoning “Pirimqul Qodirovning
“Yulduzli tunlar” romanidagi atoqli otlar” mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishi**

ANNOTATSIYASI

Mazkur bitiruv malakaviy ish tarkibi quyidagilardan iborat:

- BMI mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;
- tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi;
- tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- BMIning o‘rganilganlik darajasi va yangiligi;
- ishning nazariy asosi (mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili);
- tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;
- ish tuzilishi va tarkibi;
- bajarilgan ishning asosiy natijalari;
- xulosa va takliflarning qisqacha umumlashma ifodasi;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ilmiy rahbar
Talaba

Kilichev B.E.
Mulloqulova Z.

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi Mulloqulova Zebinisoning “Pirimqul
Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi atoqli otlar” mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga ilmiy rahbar
XULOSASI**

Atoqli otlar nafaqat til, balki butun madaniyatimiz va ma’naviyatimizning ham ulkan boyligi sanaladi. Chunki atoqli otlarda xalqimiz madaniyati va tarixining o‘ziga xos izi, aksi jo bo‘lgan. Ayniqsa, badiiy adabiyotda nomlarning qo‘llanishini o‘rganish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bitiruvchi kurs talabasi Zebiniso Mulloqulovanning ushbu ishi mashhur adib Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridagi atoqli otlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan. Unda atoqli otlarning turli ko‘rinishlari tahlilga tortilgan.

Ishning umumiy tavsifida tanlangan mavzuning dolzarbligi, ilmiy va nazariy ahamiyati, tadqiqot oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad va vazifalar, yangiligi bayon etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining 1-bobi “Pirimqul Qodirov va uning “Yulduzli tunlar” asari” deb nomlangan. Bu bob ikki qismdan iborat. 1-qismda Pirimqul Qodirovning adabiyotdagi o‘rni masalasi hamda ikkinchi qismda Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari haqida fikrlar tahlil etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining 2-bobi “O‘zbek tilining onomastik leksikasi” deb nomlangan. Ushbu bobdagi 3 tarkibiy qismda o‘‘zbek tilidagi antroponim, toponim hamda gidronimlarga oid ilmiy-nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

“Yulduzli tunlar” asaridagi onomasionimlar tahlili” deb nom olgan 3-bobda asar tilida uchraydigan antroponim va joy nomlari tahlil qilingan.

Bitiruvchi kurs talabasi Zebiniso Mulloqulovanning mazkur malakaviy ishi mavjud talablar asosida bajarilganligi hamda yakunlanganligini inobatga olib uni rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

Kilichev B.E.

**o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
f.f.n.**

27-may, 2016-yil.

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Mulloqulova Zebinisoning "Pirimqul
Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi atoqli otlar" mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga rasmiy hakam**

TAQRIZI

Atoqli otlar o'zbek tili leksik qatlamlarida o'ziga xos o'ringa ega. Atoqli otlar leksikaning shunday qatlamini hosil qiladiki, ular leksikaning qolgan qatlamlari bilan uzviy bog'liq, aloqadordir. Atoqli otlar badiiy asar tilida o'zining turli ma'no qirralarini namoyon etadi. Shuning uchun ham ularni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish bugungi kun til hamda adabiyot ilmi uchun o'ta muhimdir.

Shu jihatdan qaraganda, taqrizlanayotgan ish ham o'ziga xos nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bitiruvchi kurs talabasi Zebiniso Mulloqulova 20-asr o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili, qator tarixiy mavzudagi asarlar muallifi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridagi atoqli otlarni yig'ib, tizimlashtirib tahlil etgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 62 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining birinchi bobi "Pirimqul Qodirov va uning "Yulduzli tunlar" asari" nomini olgan bo'lib, unda Pirimqul Qodirovning o'zbek adabiyotidagi o'rni va uning "Yulduzli tunlar" asari haqida ma'lumot berilgan.

Malakaviy bitiruv ishining 2-bobi "O'zbek tilining onomastik leksikasi" deb nomlangan. Ushbu bobdagi 3 qismda antroponimlar, toponimlar hamda gidronimlarga oid mavjud ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan.

Ishning 3-bobi o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega chunki bu bobda "Yulduzli tunlar" asaridagi antroponim va toponimlar misollar asosida tadqiq etilgan.

Ish olib borilgan tahlillardan kelib chiqqan xulosalar bilan yakunlangan.

Ishda ayrim imloviy xatolar ham ko'zga tashlanadiki, ularni tuzatish lozim.

Umuman olganda, bitiruvchi kurs talabasi Z.Mulloqulovaning mazkur bitiruv malakaviy ishi yakunlangan, mustaqil bajarilgan hamda u shunday ishlar oldiga qo'yilgan talablarga javob bera oladi. Rasmiy hakam sifatida ishni ijobiy baholayman.

Rasmiy hakam

A.R.Axmedov

**o'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

30-may, 2016-yil.

**Fakultet ilmiy kengashning 2016- yil 27- may
bayonnomasi bilan tasdiqlangan**

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Mulloqulova Zebinisoning "Pirimqul Qodirovning

"Yulduzli tunlar" romanidagi atoqli otlar" mavzusidagi

bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi-10 ball	talabga qisman javob beradi-7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo'yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yeterli darajada asoslangan-5b.	yeterli asoslan-magan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalan-ganlik darajasi	to'la- 7 ball	qisman - 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to'la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi; ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor - 6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo'q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy	aralash	referativ

		tadqiqotlar asosida - 8 ball	shaklidan - 5 ball	xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMI ni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMI ga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Mamatov A.E.

A'zolari: 1. dots. Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof. Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots. Eshonqulov H.P. (a'zo)

4. dots. Yo'ldosheva D..N. (a'zo)

8-iyun, 2016-y.

REJA:

Ishning umumiy tavsifi.

1-bob. Pirimqul Qodirov va uning “Yulduzli tunlar” asari.

- 1.1. Pirimqul Qodirov va uning adabiyotdagi o‘rni.
- 1.2. P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari haqida.

2-bob. O‘zbek tilining onomastik leksikasi.

- 2.1 O‘zbek tilida antroponimlar.
- 2.2 O‘zbek tilida toponimlar.
- 2.3 O‘zbek tilida gidronimlar.

3-bob. “Yulduzli tunlar” asaridagi onomasionimlar tahlili.

- 3.1. Antroponimlar.
- 3.2. Joy nomlari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ilovalar.

Ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek onomastikasi, ya’ni nomshunosligi 20-asrning ikkinchi yarmidan keyin jadal rivojlangan sohalardan hisoblanadi. Aslida o‘tmish davrlarda ham onomastika sohasiga oid ishlar amalga oshirilganligini qayd etish lozim. Bunda Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning faoliyatini misol sifatida qayd etish mumkin.

So‘nggi 50-60 yillar mobaynida atoqli otlarni o‘rganish borasida qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bunday ishlar jumlasiga E.Begmatov, Z.Do‘simov, T.Nafasov, S.Qorayev, H.Hasanov kabi olimlarning izlanishlari kiritish mumkin [5; 6; 17; 20; 21; 24; 34; 47; 49; 50; 51; 53]. Shu bilan birga alohida olingan hududlarning toponimiyasi yoki ma’lum asarlardagi onomastik leksikani o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, A.Muhammadjonov Andijon, T.Nafasov Qashqadaryo, Z.Do‘simov Xorazm viloyatlarining toponimiyasini atroflicha tadqiq etishgan bo‘lsa, M.Tillayeva “Avesto”ning, M.Turdibekov “Shajarai turk” asarining onomastikasini tadqiq qilishgan [27; 28].

Atoqli otlar xalqning turmushi, xo‘jalik faoliyati va o‘tmishi haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardan biridir. O‘zbek adiblari tomonidan asarlarda qo‘llangan atoqli otlar ham xalq hayotining turli jihatlaridan darak beruvchi vosita sanaladi. Asarlarda qo‘llanilgan atoqli otlar haqida ilmiy-nazariy ma’lumotga ega bo‘lish adibning maqsadini, asarning asl mohiyatini tushunishga ko‘mak beradi. Chunki xalq tarixi, o‘tmishi, hoziri va kelajagi mana shu madaniy manbalarda o‘z aksini topgan.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning “Ma’naviyat o‘z xalqining tarixi, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi”, – degan fikrlari ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi [1, 71].

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi. Bu malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadi “Yulduzli tunlar” asaridagi atoqli otlarni lisoniy jihatdan tahlil qilishdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiq qilinayotgan mavzu oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi.

- asarda mavjud bo'lgan onomastik leksika materiallarini atroflicha to'plash hamda sistemalashtirish;
- atoqli otlarni lug'aviy-mavzuiy guruhlariga bo'lish;
- nomlarning ma'naviy etimologik xususiyatlari yuzasidan kuzatishlar olib borish va ba'zi atoqli otlarning etimologik ma'nosini ochish;
- nomlarning grammatik tuzilishini aniqlash va ularni belgilash.

Ishning ilmiy yangiligi. Malakaviy bitiruv ishida “Yulduzli tunlar” asarida qo'llanilgan atoqli otlarning lisoniy materiali ilk bor to'plandi va atroflicha o'rganildi. Ishda biz to'plagan atoqli otlarning lug'aviy- mavzuiy tasnifi berilib, ba'zi nomlarning etimologiyasiga, yasaliş usullari hamda grammatik tuzilishiga to'xtalib o'tildi. Predmetlarni nomlash amal qilingan asosiy holat, tarixiy va zamonaviy an'analar aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Malakaviy bitiruv ishida asardagi atoqli otlarni o'rganish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqarildi. Ushbu xulosalar atoqli otlar haqida hozirgacha ma'lum bo'lgan nazariy ma'lumotlarni to'ldirishi mumkin.

Shuningdek ishning ilmiy tahlil va xulosalari nafaqat o'zbek nomshunosligi, balki o'zbek leksikologiyasi, dialektologiyasi, o'zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun ham ahamiyatlidir. Topilgan va tahlil qilingan materiallardan o'zbek nomshunosligi bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda o'zbek atoqli otlarining etimologik, izohli, imloviy lug'atlarini tuzishda foydalanish mumkin.

Ishning metodologik asoslari va usullar. Tadqiqotning metodologik asosini ilg'or materialistik dialektikaning narsa va uning nomi orasidagi munosabatga oid ilmiy nazariy qarashlari, shuningdek, nomshunoslik sohasida atoqli otlarni tadqiqot qilish bo'yicha hozirgi davrda erishilgan muhim ilmiy kontseptsiyalar tashkil qiladi.

Tadqiq qilinayotgan asar leksikasiga oid atoqli otlarga doir tahlillarni amalga oshirishda zamonaviy nomshunoslik sohasi, jumladan, turkiy, rus hamda Yevropa nomshunosligi erishgan yutuq hamda tajribalarga tayanildi.

Ishda tavsifiy, tarixiy, tarixiy-qiyosiy, ilmiy usullardan foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishining obyekti va materiali. Biz ishning tahlil obyekti qilib Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari oldik. Asarda qoʻllanilgan atoqli otlar shu ishning materialini tashkil qiladi. Bu asardagi atoqli otlar, ayniqsa, toponimlar Samarqand, Jizzax, Fargʻona viloyatlari hududiga tegishli boʻlib, ijodkor badiiy asar mazmuniga, obrazlarning harakat qilish oʻrniga qarab nomlar tanlab olgan. Asarda toʻrt yuz ellikga yaqin atoqli otdan foydalanilgan. Biz ishimizda ularning asosiy qismini lisoniy jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Ish kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, 62 betni tashkil qiladi.

1-BOB.

PIRIMQUL QODIROV VA UNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANI.

1.1. PIRIMQUL QODIROVNING HAYOTI VA IJODI

20-asr o‘zbek adabiyotida o‘nlab adiblar o‘z ijod mahsullarining barhayotligi, sermazmunligi bilan ajralib turadi. Bular orasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning alohida o‘rni bor.

Iste’dodli nosir, ajoyib tarjimon, zukko adabiyotshunos olim sifatida tanilgan Pirimqul Qodirov, ayniqsa, o‘zbek nasri rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

P.Qodirov 1928-yilda Tojikiston Respublikasi O‘ratepa tumanidagi Keng ko‘l qishlog‘ida chorvador oilasida tug‘ilgan. 1951-yilda Toshkent davlat universitetini tugatgan. M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti (Moskva)da aspirantura kursini o‘tab, 1954-yilda “Abdulla Qahhorning urushdan so‘nggi ijodi” mavzuyida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1954-1963-yillarda sobiq ittifoq Yozuvchilar uyushmasida o‘zbek adabiyoti bo‘yicha maslahatchi, 1963-1988-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim bolib ishlagan. «O‘ylar» (1971), «Dil va til» (1972), «Xalq tili va realistik proza» (1973) singari monografiyalar yozib, so‘z san’atining til va badiiy mahoratga doir muhim muammolarini yoritishga munosib ulush qo‘shgan.

P.Qodirov «Sening izlaring» kinosenariysi va «Insof» pyesasining muallifi. Uning tarjima san’ati sohasidagi xizmatlari ham samaralidir. U Lev Tolstoyning «Kazaklar», K.Fedinning «Ilk sevinchlar», P.Tolisning «Saraton», Xidir Deryaevning «Qismat» va boshqa bir qancha nasriy asarlarni o‘zbek tiliga o‘giran.

P.Qodirov respublikamizda jamoat arbobi sifatida ham tanilgan. U O‘zbekiston xalq deputati, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi adabiyot, san’at va me’morchilik sohasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari qo‘mitasining raisi lavozimlarida faoliyat olib borgan.

P.Qodirov «Xalqlar do‘stligi» ordeni va medallar bilan, «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» (1978) unvoni bilan taqdirlangan. «Yulduzli

tunlar» romani uchun Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor boʻlgan.

P.Qodirov oʻz ijodini 20-asrning 50-yillari boshlarida talabalar va oʻqituvchilar hayoti haqida ayrim hikoya va ocherklar yozishdan boshladi. Uning birinchi kitobi — «Studentlar» 1950-yilda nashr etildi. Keyinchalik «Besh yilliklar farzandi» (1951), «Olimamiz» (1953), «Hikoyalar» (1953) kabi toʻplamlarini chop ettirdi. SHunday qilib, P.Qodirov 50-yillarnint birinchi yarmida ijodiy izlanish davrini bosib oʻtdi. SHundan soʻng u nasrning eng qiyin va yirik janrlariga qoʻl urib qissachilik va romanchilikda isteʼdodini namoyon eta boshladi.

P.Qodirov «Qadrim» (1959), «Erk» (1969), «Meros» (1974), «Najot» (1981) kabi qissalar, «Uch ildiz» (1958), «Qora koʻzlar» (1965), «Olmos kamar» (1977), «Yulduzli tunlar» (1978), «Avlodlar dovoni» (1988) singari romanlar yaratib, oʻzbek nasri taraqqiyotiga salmoqli hissa qoʻshdi. Bu asarlarda inson qadriyatini ulugʻlash, insonparvarlik va adolatparvarlik, halollik va sof vijdonlilik, vatanparvarlik va xalqlar doʻstligi kabi gʻoyalar olgʻa surilgan [21, 386].

P.Qodirov qissayu romanlarining zamonaviyligi va tarbiyaviy-estetik ahamiyati ham asosan ana shunda

1.2. P.QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ASARI HAQIDA

P.Qodirov ijodida “Yulduzli tular” romani alohida oʻrin egallaydi. Adib bu romanni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy oʻzlashtirishning yangi namunasini koʻrsatdi. Roman oʻzining haqqoniyligi va qiziqarliligi bilan ajralib turadi.

“Yulduzli tunlar” – tarixiy biografik roman. Unda ulugʻ oʻzbek shoiri, adibi va mashhur podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatli hayoti, faoliyati, markazlashgan yirik davlat tuzish yoʻlida chekkan aziyatlari, koʻrsatgan qahramonliklari keng tarixiy koʻlamda tasvirlab berilgan. Roman voqeasi Boburniig Andijondagi yoshlik chogʻlarini tasvirlashdan boshlanadi. Roman

Boburning Shayboniyxon hujumlariga qarshi kurashda goh yengib, goh yengilib, nihoyat Afgʻoniston va Hindistondagi tarqoq xonliklar ustidan gʻalaba qozonishi “Boburiylar sulolasi” deb nom olgan yirik feodal davlatni tuzishi kabi voqealar silsilasini oʻz ichiga oladi.

Roman voqeasi Boburning Agrada oʻzi tashkil etgan bogʻda vafot etishi bilan yakunlanadi. Ana shu voqealar tasviri jarayonida Bobur talantli lirik shoir, adib, mohir sarkarda, buyuk davlat arbobi, samimiy inson, mehribon ota, sanʼat va adabiyot homiysi, tarixchi olim sifatida gavdalanadi.

Romanda hayot haqiqati, Bobur yashagan murakkab, gʻoyat ziddiyatli davr, xususan, asar bosh qahramoni Bobur hayoti bilan bogʻliq bolgan voqealar nihoyatda tabiiy qilib ifodalangan. Adib romanda «Boburnoma», «Humoyunnoma» singari asil manbalardan ijodiy foydalangan. Romanda hayot haqiqati badiiy haqiqatga aylantirilgan.

Shunisi muhimki, roman markazida Bobur obrazi tursa-da, asarda mehnatkash xalq tarixni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon boʻladi. Xuddi shuningdek, asarda fojiali voqealar, ziddiyatlar, iztiroblar tasviri katta oʻrin egallagan. Roman voqeasi bosh qahramon Boburning vafotini aks ettirish bilan tugasa-da, unda hayotbaxsh ruh (optimizm) qalqib turadi. Romanda podshoh Bobur oʻlgan boʻlsa-da, buyuk shoir Bobur oʻlmagan uning hayoti, u yaratgan dilbar asarlarda mangu davom etmoqda, degan gʻoya yorqin aks ettirilgan.

Yozuvchi asarda Boburniig butun ongli hayot yoʻlini qamrab olib tasvirlar ekan, uni oqibatli farzand, mehribon ota, talantli shoir va adib, ilm-fan va madaniyat ahlining murabbiysi, buyuk vatanparvar inson, dono podshoh, mohir sarkarda, ziyrak diplomat sifatida koʻrsatgan. Bunda Bobur obrazining yorqin, mukammal chiqishida yozuvchining ruhiy tahlil sanʼatidan mohirona foydalanganligi va har bir voqeani puxta asoslay bilganligi alohida ahamiyat kasb etgan. Romandagi Boburning ona-Vatanga boʻlgan mehr-muhabbati, oʻz Vatanidan yiroqda yashashga majbur boʻlib chekkan iztiroblari, ona yurti sogʻinishi tasvirlangan oʻrinlar ruhiy tahlilning namunasidir. Bunda yozuvchi ana shu psixologik tasvir va tahlil vositasida Boburni buyuk vatanparvar inson sifatida

gavdalanira olgan. Bobur o‘z hayotining so‘nggida suyuqli o‘g‘li Humoyunga vasiyat qilib, “Men tug‘ilgan yurt bilan aloqani uzanglar, shoyad men bitgan kitoblar ikki oradagi aloqaning rishtalari bo‘lsa”, – deydi.

Bobur asarda haqiqiy inson sifatida jonlanadi. Yozuvchi uning insoniy fazilatlarini o‘z onasi Qutlug‘ Nigorxonimga, o‘z opasi Xonzodabegimga, suyuqli xotini Mohim begimga va aziz farzandi Humoyunga bo‘lgan mehr-muhabbati misolida ochib beradi. Natijada Bobur kitobxon ko‘z o‘ngida pok qalbli oqil inson sifatida gavdalanadi. “Humoyun, jigarim, — deydi Bobur og‘ir kasal bo‘lib yotgan o‘g‘liga qarab, — sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og‘ir dardingni xudo sendan olib menga bersin”.

Romanda Bobur obrazining turli qirralari ochila boradi. Boburning mamlakat, xalq, adabiyot, san‘at, madaniyat oldidagi buyuk xizmatlari, shuningdek, uning mohir sarkardaligi, jangda ko‘rsatgan qahramonligi, mustahkam irodasi, tadbirkorligi qiziqarli aks ettirilgan.

Bobur zo‘r bir davlat tuzib, yurtni tinchitish, mamlakatni obod qilish yo‘lida kurashar ekan, ilm, fan, san‘at-adabiyot ahliga har jihatdan yordam beradi. U aqlning qudragiga ishonadi, fidoyilikni, sodiqlikni, sofdillikni ulug‘laydi.

Yozuvchi Boburning andijonlik yigit Tohirga, me‘mor Fazliddinga, tarixchi Xondamirga, ajoyib rassom Behzodga, hind fuqarosi Hindubekka bo‘lgan munosabatlarini tasvirlash orqali uning buyuk orzularini, yirik davlat tuzish, mamlakatni obod qilishga astoydil harakat qilganligini, adabiyot va san‘at rivojiga katta hissa qo‘shganini ochib bergan. Boburning mehnatkashlarga, navkarlarga, san‘at va adabiyot ahliga mehribonligini ko‘rsatgan. “Mening taqdirim g‘alati, mavlono, atrofimni obod qilganim sari o‘zim so‘lib bormoqdamen... Men bir zo‘r davlat tuzish maqsadini zimmamga olganimda buning qanchalik mushkul ekanini tasavvur qilmagan ekanmen. Tunu-kun mehnat, tashvish, o‘t-olov... xuddi harakatdagi vulqonlar orasiga tushib qolgandekmen. Ko‘zlagan maqsadim amalga oshguncha umrim yetgaymi, yo‘qmi, bilmayman” — deydi Bobur.

Romanda Boburning aqlu farosati, har narsani chuqur o‘ylab hal qilishi yaqqol ifodalangan. Asarda tasvir etilishicha, hind hukmdori Ibrohim Lo‘dining

onasi Bayda Boburga zahar berib, eng og'ir jinoyatga qo'l uradi. Bobur esa malikani qiynab o'ldirish o'rniga, unga hayot baxsh etib, mardlik va tantilikning, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarishning ajoyib namunasini ko'rsatadi. "Bizni zaharlab o'ldirmoqchi bo'lgan bu makkor xonim uchun eng oliy jazo shuki, biz mana, tirikmiz! Bu xonimning o'ziyu o'g'li qilolmagan ulkan ishlarni biz qilmoqdamiz!.. Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko'rsin, yomonlikka yaxshilik qilish mard kishining qo'lidan kelishiga amin bo'lsin. Agarda malikada vijdon bo'lsa, o'g'li qilmay ketgan ishlarni biz qilganimizni ko'rib vijdoni azoblansin. Agar vijdoni bo'lmasa, ichida faqat baxillik chayonlari bo'lsa, bu chayonlar o'zini chaqib yotaversin. Malikaga bundan o'zga jazo munosib emasdir!» deydi Bobur.

Romanda ibrat olishga loyiq bo'lgan bunday o'rinlar ko'p. «Yulduzli tunlar» romanining zamonaviyligi ham xuddi ana shu ibratda.

«Yulduzli tunlar» romanida saroy muhiti, undagi ziddiyatlar ham haqqoniy aks ettirilgan. Amir-amaldorlarning, beklarning adolatsizligi, zolimligi, bir-biriga xiyonat qilishi, shahzodalarning beboshligi, o'zaro tarfkashlik janglari ochiq ko'rsatilgan. Shu bilan birga, bular hammasi o'sha davr hayoti bilan bog'liq holda Bobur obrazi, xususan, uning donoligi, tadbirkorligi, ijobiy va salbiy ishlari, yutuqlari va xatolarini ochib berishga to'la bo'ysundirilgan.

P.Qodirov saroy muhiti va amir-amaldorlarning kirdikorlarini fosh etishda o'sha davr hayot haqiqatiga to'ligicha asoslangan.

«Yulduzli tunlar» romanida Bobur hayoti va faoliyatidagi salbiy tomonlar ham ochib berilgan. Xususan, uning podshoh sifatidagi xato ishlari, shafqatsizligi, Bobur shaxsi va dunyoqarashidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ko'rsatilgan. Yozuvchi asarda Boburning butun faoliyatini birdek oqlab qo'ya qolmaydi, balki oqni oq, qorani qopa qilib tasvirlaydi, Ana shuning uchun ham Boburning buyuk tarixchi Xondamir bilan suhbatda aytgan quyidagi so'zlari romanning g'oyaviy xulosasi, adibning Boburga bergan ijtimoiy umumlashmasining asl mag'zi sifatida aks sado beradi.

Bobur: «Avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o‘ylamasinlar. Qilgan gunohlarimiz o‘zimizga nechog‘lik og‘ir tushganidan ogoh bo‘lsinlar... Janglarning qonli sellari, saltanatning toshqin daryoday betinim talotumlari jonimga tegdi. Toju taxt bevafoqligini ko‘pdan beri sezib yuribman. Menga vafo qilsa, faqat yozgan asarlarim vafo qilmog‘i mumkin. Vatanning o‘zim qaytolmasam ham, asarlarim qaytmog‘i mumkin. Endigi orzum – men tug‘ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa...» – deb nola qiladi. Romanning boshqa bir joyida Bobur: «Neki xatolik, neki gunoh qilgan bo‘lsam, hammasining birlamchi sababi mening podshohligimdir»,— deydi. Ko‘rinadiki, adib podshohlikni oqlamaydi, undagi ziddiyatlarni, adolatsizliklarni fosh qiladi.

«Yulduzli tunlar» romanida Tohir, Fazliddin, Xonzodabegim, Nigorxonim, Humoyun, Mohim begim, Shayboniyxon, Xondamir, Malika Bayda kabi tarixiy va badiiy to‘qima shaxs obrazlari ham gavdalantirilgan.

P.Qodirov Boburlar avlodi tarixini badiiy tadqiq etishni “Avlodlar dovoni” romanida davom ettirdi.

2-bob.

O‘ZBEK TILINING ONOMASTIK LEKSIKASI

Onomastika-grekcha so‘z bo‘lib, nom qo‘yish san’ati demakdir. Bu atama tilshunoslikda ikki ma’noda ishlatiladi

1. Tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi bo‘limi.
2. Atoqli otlar majmuasi [19, 11]

Inson uchun, umuman tog‘lardan alohida tog‘larni, daryolardan alohida daryolarni, shaharlardan alohida shaharlarni, odamlardan alohida odamlarni farqlash hayotiy ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgan.

Bunday ehtiyojlarni qondirish uchun kishilar bir turkumga kiruvchi predmet va hodisalardan ayrimlarini alohida, yakka-yakka ajratib olganlar va uni maxsus nom berish orqali ataganlar.

Jumladan, tog‘larni yakkama-yakka holatda Olatog‘, Qoratog‘, Pomir, Chimyon; daryolarni Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo; shaharlarni Buxoro, Samarqand, Urganch va boshqa toponimlarning nomlanishi ham yakka shaxslarning ismi ham shunday yuzaga kelgan.

Boshqacha aytganda, yakka predmet va hodisalarni maxsus qo‘shimcha nomlar bilan atash tilda atoqli otlarni yuzaga keltirgan. Atoqli otlar ham xuddi boshqa so‘zlar singari tilda azaldan mavjud. Buni qadimgi yozma yodgorliklar tilida yaqqol ko‘rish mumkin.

Tilda atoqli otlarning yig‘indisi mazkur tilning nomlar boyligini tashkil qiladi. Tilning onomastik fondidagi atoqli otlar o‘zi atayotgan predmet yoki obyektning xususiyatiga ko‘ra farqlanadi. Ular turli-tuman jonsiz predmetlarning yoki insonlarning atoqli otlari bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, atoqli otlar ham “sistemalarning sistemasi”dir. Ya’ni uning o‘zi alohida bir butun sistemani tashkil qilib, ayni zamonda bir necha podsistemalarga bo‘linadi. Ular quyidagilar:

Antroponimlar (kishi nomlari)

Toponimlar (joy nomlari)

Zoonimlar (hayvon nomlari)

Fitonimlar (oʻsimlik nomlari)

Teonimlar (diniy nomlar)

Astronimlar (koinot nomlari)

Dokumentonimlar (hujjat nomlari)

Xronimlar (tarixiy hodisa nomlari) va boshqalar [19, 14].

Qayd etilgan atoqli otlarning har biri oʻziga xos tizimiy munosabat bilan birlashadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos- odam, onuma-ism, nom) kishi nomi demak.

Kishi nomlariga xos xususiyatlarni oʻrganuvchi onomastikaning bir boʻlimi antroponimikadir [55, 25].

2.1. OʻZBEK TILIDA ANTROPONIMLAR

Til lugʻat tarkibida oʻz oʻrniga va tizimiy xususiyatlariga ega.

Yuqorida qayd qilinganidek, har bir onomastik tizim yana mayda tizimchalarga boʻlinadi. Jumladan, atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham oʻz navbatida boshqa podsistemalarga boʻlinadi. Bular quyidagilar:

- 1.Ismlar;
- 2.Familiyalar;
- 3.Ota ismlari (otchestvo);
- 4.Taxalluslar;
- 5.Laqablar [19, 12].

Koʻrinadiki, antroponimlar oʻzbek tili leksik sistemasida maʼlum oʻringa ega.

Tilimizdagi koʻpsonli ismlar xalqimizning ulkan madaniy hamda maʼnaviy boyligining benazir durdonalaridan biridir. Har bir xalqning koʻhna tarixi boʻlganidek, ismlarning ham turli davrlarda, xilma-xil sharoitlar tufayli vujudga kelgan va rivojlanib borgan qiziqarli tarixi ham bordir.

Dunyoga kelgan chaqaloqqa ism qo'yish va bu orqali uni boshqa shaxslardan farqlashga intilish jahondagi barcha xalqlarda juda qadimiy davrlardayoq yuzaga kelgan obyektiv ehtiyojdir.

Ism va ism qo'yish haqida turli qarashlar mavjud. Bu haqda Ernest Begmatov "Fan" nashriyoti tomonidan 1994-yilda e'lon qilingan "Ism chiroyi" kitobida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Ism va ism qo'yish odati – biror yakka shaxsni o'zgalaridan farqlash, ajratish ehtiyoji tufayli tug'ilgandir. Keyinchalik yuzaga kelgan va rasmiy tus olgan familiyalar, laqablar, ota ismlari, ajdodiy (pantronomik) nomlar va ularning turli-tuman ko'rinishlari, kishini atashning boshqa xil shakllari va usullari ana shunday hayotiy ehtiyojning qonuniy mahsulidir" [50, 7].

Darhaqiqat, hozirgi kunda ismlarning turli ko'rinishlari - familiyalar, ota ismlari, laqablar bilan atash odat tusiga kirgan. Hatto bu haqda muqaddas kitoblarda keltirilgan bir qancha fikrlar ham o'rinnidir. Jumladan, "Qur'on" va "Hadislar"da kishilarning bir-biriga laqablar, haqoratli nomlar qo'yishini va odamni o'sha laqab bilan atashni nihoyatda qoralaydi. "Hadis"da shunday deyilgan: "Kimki birovni o'z nomi o'rniga boshqa laqab bilan chaqirsa, uni farishtalar la'natlaydilar. Odamlarga laqab to'qimangiz va laqablar bilan chaqirmangiz" [22, 148].

Ko'pgina ismlar Muhammad payg'ambarning safdoshlari, Choriyorlar nomlaridan olingan yoki ular negizida yasalgan: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali.

Farzandni Olloh beradi tushunchasi asosida esa Ollobergan, Xudoyberdi, Tangriqul kabi qator nomlar yaratilgan.

Turli diniy tushunchalar bilan bog'liq holda go'dakni balo-qazodan asrashini nazarda tutib, ular ismi tarkibiga "islom", "din", (iddin),"mo'min", "banda" so'zlari qo'shilgan: Islom, Mo'min, Dinmuhammad kabi.

O'zbek ismlari orasida -iddin, -uddin qo'shimchasi (so'zi) bilan tugaydigan anchagina ismlar mavjud: Asliddin-dinning asosi, tayanchi; Asomiddin-dinning tayanchi; Bahouddin-dinning ko'rki; Vasliddin-dinning jamoli; Zahriddin-dinning posboni;

Chaqaloqqa beriluvchi bir qator nomlar islom dinining muqaddas, xosiyatli oylar, kunlar haqidagi g'oyalarini ifoda qiluvchi so'zlardan yasalgan: Sayid, Xo'ja, Hoji, Namoz, Juma, Ramazon, Muharram kabi. Mana shu nomlar chaqaloqqa yaxshilik va baxt keltiradi deb ishonilgan. Islomning bolaga ism qo'yish bo'yicha talablari quyidagilar:

1. Musulmon o'z farzandini go'zal, chiroyli ismlar bilan nomlashi lozim.
2. Ism uning egasini mag'rurlantiruvchi bo'lmasligi kerak.
3. Bolaga ismni Olloh Taoloning go'zal ismlaridan yasalgan nomlardan tanlash lozim.
4. Musulmon kishining ismi ma'no va shaklan Ollohning ismiga aynan teng kelishi yoki undan ortiq turishi mumkin emas.
5. Bolaga tanlangan ismlarda islomga bo'lgan hurmat ifodalanib turishi kerak.
6. Musulmonlar bir-birining ismini to'liq aytib chaqirishi lozim.
7. Musulmonlar bir-biriga laqab qo'yishi man qilinadi.

Bolani nomlashda asrlar bo'yi islom qoidalariga tayanilib kelindi.

Bu ismlarning qo'yilishi o'zbek ota-onalarining ma'lum yaxshi niyat va orzulari, o'zga millat va elatlarning atoqli farzandlariga bo'lgan havasi orqali vujudga kelgan.

O'zbek tili lug'at boyligining kattagina qismini insonlarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil qiladi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi.

Ko'rinadiki, antroponimlar o'zbek tili leksik sistemasida ma'lum o'ringa ega. Faqat ungagina xos bo'lgan indikatorlar mavjudligi bilan ham xarakterlanib turadi. Xuddi shuningdek, antroponimlar semantik, uslubiy va yasalish xususiyatlari bilan boshqa leksik birikmalardan ajralib turadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron planda sistem-struktur va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish kerak.

Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning

jamiyatda tutgan o'zni haqida ham xabar beradi. Har bir ism ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Har bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Ismlar lingvostilistik jihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin.

Ismlar o'z obyekti haqida ma'lum bir axborotlarni berishi mumkin (A.V.Superanskaya).

Bu axborotlar uch ko'rinishga ega:

- 1) lisoniy;
- 2) nutqiy;
- 3) qomusiy.

Til birligi (lisoniy) sifatida ular shaxslarni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi.

Nutqiy informatsiyada esa so'zlovchining shu ismga munosabatini ifodalaydi. Masalan: "Gitler nomini eshitsam, jinim qo'zg'aydi". Bu gapda nomga nisbatan salbiy munosabat ifodalanmoqda [19, 24].

Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan applyativ ma'noga yaqinlashadi: Gulnora, Gulandom, Gulruxsor ismlarida gulga xos bo'lgan noziklik, yoqimlilik semalariga asoslaniladi.

Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi.

Ismlar eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'ladi.

Applyativlardan ko'chgan ismlarda sinonimiya hodisasi mavjud (To'xtasin, Tursun) ammo polisemiya mavjud emas. Polionimiya hodisasi (A.V.Superanskaya) anchagina uchraydi. Masalan: Alpomish – Hakimbek; Ibn Sino – Avitsenna; Aristotel – Arastu kabi.

Ko'rinadagi, antroponimlar, eng avvalo, so'zdir, til boyligining bir qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga ular o'ziga xos qator xususiyatlarga ega.

Taniqli tilshunos V.N.Nikonovning aytishicha: "Bir-biridan ajralmas amaliy va nazariy vazifalarning mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir" [16, 14]. Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni o'rganish qadimiy tarixga ega.

Yuz yillar davomida qator antroponimik tadqiqotlar yaratildi. Natijada kishi ismlarini o'rganuvchi fan antroponimika vujudga keldi. Bu sohaga bag'ishlab xalqaro onomastik konferensiyalar o'tkazildi. Jumladan, Butunittifoq onomastik konferensiyalar Ulyanovsk (1967), Gorkiy (1969), Buxoro(1974), Xiva (1991) va boshqalar shular jumlasidandir.

Antroponimika masalalari bilan rus tilshunoslaridan A.M.Sobolevskiy, V.N.Nikonov, A.V.Superanskaya, S.I.Zinin va boshqalar shug'ullanganlar.

Turkologiya, jumladan, o'zbek tilshunosligida N.A. Baskakov, G.F.Sattorov, T.Jonuzoqov, R.Qo'ng'urov, J.Muxtorov, E.Begmatov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, I.Xudoynazarov va boshqalar ilmiy tadqiqot olib borganlar [Qarang: adabiyotlar ro'yxati]. Jumladan, E.Begmatov 1965-yilda "O'zbek tili antroponimikasi", I.Xudoynazarov esa "Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik uslubiy xususiyatlari" (1998) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. 2000 yilda esa N.Husanov "XV asr yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

O'zbek tiliga Davlat maqomi berilgandan so'ng yuzaga kelgan ikki nomzodlik va bir doktorlik dissertatsiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzarb va ularni har tomonlama o'rganish zamon talabi ekanligini ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekistonning yangi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yo'liga qadam qo'yishi onomastik, jumladan, antroponimik sistemani yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Onomastikaning tarkibiy bir qismi bo'lgan "Antroponimika" bir qancha unsurlarni o'z ichiga oladi va har bir nomda quyidagi unsurlarning barchasi mavjud bo'ladi:

- 1.Antroponimika o'z obyekti va tadqiq usuliga egaligi;
- 2.Tilda nomlar ma'lum bir sistem qurilishga egaligi;
- 3.Har bir nom ma'lum bir tarix mahsuli ekanligi;
- 4.Har bir nom o'ziga xos talaffuz, yozilish, yasalish va tuzilish xususiyatlariga egaligi;

5. Antroponimik indikatorlar mavjudligi;

6. Antroponimlar regional xususiyatga ega ekanligi;

7. Antroponimlar ham boshqa leksik birliklar singari uslubiy ahamiyat kasb eta olishi va h.k.

Kishi nomlari bilan shug'ullanuvchi antroponimika bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi, har bir inson ismining ma'nosi qanday ekanligi, qaysi tilga mansubligi va shunga o'xshagan bir qancha ma'lumotlarni bilishni xoxlaydi. Shu sababli ushbu sohaning keng targ'ib qilinishi barcha uchun birday zarur bo'lib qoldi.

O'zbek antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog'liq ayrim dolzarb muammolar ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. O'zbek tarixiy antroponimiyasining barcha kategoriya va komponentlarini-kishi ismlarini, laqablar hamda taxalluslarni o'tmishda o'zbeklar uchun rusum bo'lgan arabcha, forsha shakllarini har tomonlama o'rganish.

2. Mifonim va teonimlarni to'la o'rganib chiqish.

3. Antroponimlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish. Masalan, Bobur asarlarida antroponimlar kabi.

4. Antroponimlarning imlosi masalasi

5. Nomlarning izohli, orfografik, etimologik lug'atlarini tuzish va h.k.

Darhaqiqat, ismlar tarixi xalq tarixidir. Har bir tarixiy davrning o'ziga xos ism berish odatlari bo'lgan. Chunonchi, ibtidoiy va urug'chilik davrda berilgan ismlarda mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, turli ilohiylashtirilgan tasavvurlar o'z ifodasini topgan: Oyarig', Kuchbars, Alp, Er, Tangriberdi kabi.

O'rta Osiyoda arablar istilosidan keyin Islom dini bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi ismlar paydo bo'lgan. Bunda ko'proq "qur'on" ko'rsatmalariga amal qilingan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom 300 ta ish va harakatdan musulmonlarni qaytargan, ya'ni bu ishlarni makruh deb hisoblagan. Bulardan biri: "Farzandga ma'nosiz va nafratli nomlar qo'yish", ikkinchisi "Farzandga ortiqcha maqto'vni eslatadigan ism qo'yish (masalan, Valiyulloh kabi)"

Ko‘rinadiki, Islomning bolani nomlash aqidasi asoslarini ismning ma‘noli, mazmunli, kib-ru havodan xoli hamda chiroyli bo‘lishini tashkil qiladi.

“Qur‘on” va “Hadislar”da kishilarning bir-biriga laqablar, haqoratli nomlar qo‘yishini va odamni o‘sha laqab bilan atashni nihoyatda qoralaydi. “Hadis”da shunday deyilgan: “Kimki birovni o‘z nomi o‘rniga boshqa laqab bilan chaqirsa, uni farishtalar la‘natlaydilar. Odamlarga laqab to‘qimangiz va laqablar bilan chaqirmangiz” [22].

Ammo bu qoidalar ba‘zan qo‘pol ravishda buzildi ham. Jumladan, Abduqodir nomi qodir, Abdujabbor nomi Jabbor deb ishlatilmoqda. Vafo-sodiq, sadoqatli (aslida Abduvafo), Aziz qadrli (aslida Abduaziz) kabi qisqargan holda ishlatish natijasida Ollohga tegishli bo‘lgan sifat va xususiyatlar uning bandasi bo‘lgan shaxslarga mansub belgilarga aylanib qolmoqda. Bu holat islomning bolani nomlash talablariga tamoman ziddir.

O‘zbek ismlari orasida ba‘zan ma‘nosiga ko‘ra g‘oyaviy qo‘pol va noqulay holatga kelib qolgan Xudo-yev, Ollo-yev, Nabi-yev, Rasul-ov, Payg‘om-ov, kabilarni uchratish mumkin. Bu familiyalar aslida Xudoyberdiyev, Olloqulov va h.k. bo‘lishi kerak.

Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta‘sir ko‘rsatadi deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining o‘ziga o‘xshaydi degan noto‘g‘ri tushuncha bilan bog‘liq. Shu sababli ham kishilar ongida “xosiyatli” va “xosiyatsiz” ismlar mavjudligi haqida turlicha ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma-xil ko‘rinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin ko‘rinadi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug‘ilgan bolaga qo‘yishmaydi. Chunki marhumning arvohi achchiqlanib qolishi, ism bilan birga ajal bolaga ham o‘tishi, yuqishi mumkin deb o‘ylashadi.

Shuningdek, goldarning o‘z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni yuzaga keltiradi, yomon nom bu kishi uchun baxtsizlik, ofat, kasallik va o‘lim keltiradi deb xayol qilishadi. Axir, shunday bo‘lmasa, o‘zi bilan nomdosh

bo'lgan kishi hayotida biror baxtsiz hodisa yuz bersa yoki u vafot etsa, o'xshash ism egasi bo'lgan gold o'z ismini darrov boshqa biror nom bilan almashtirishga oshiqarmidi deysiz?! Armanlar bo'lsa, bolamizga hayot bo'lgan qarindoshning ismiga o'xshash nom bersak, qarindoshning umri qisqarib qoladi deb o'ylasharmidi?! Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, E.L.Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni to'plashgan [24, 13].

Ismning inson va uning taqdiri bilan bog'liqligi haqidagi tasavvurlar turli-tuman va ko'p qirralidir. Beloruslarning hamqishloq bo'lgan jinni yoki aroqxo'rlarning nomiga o'xshash ismlarni o'z bolasiga qo'yishdan qochishi ham keltirilgan odat bilan bog'liqdir. Mana shunday noto'g'ri tasavvurlar ta'sirida bo'lgan o'tmish kishilari o'zlarini turli tasodif va odatlardan saqlamoq uchun, har xil tilsimotlarning qurboni bo'lib qolmaslik uchun o'z shaxsiy otlarini sir saqlaganlar. Nomni yashirmoq uchun bolaga bitta emas, ikkita ism berilgan. Bolaning asosiy nomi sir tutilgan va u ikkinchi ism bilan yuritilgan. O'zbek oilalarida bitta bolaning bir davrning o'zida ham Muhammadamin, ham To'xtasin deb ikki nom bilan atashga ham duch kelamiz.

Bolaga ism tanlashda o'tmish ajdodlar ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o'sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qit'alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi rasm-rusumlardandir. Bu odatning o'tmishda Saxalin, Bering bo'g'ozi hamda Afrika qit'asida yashovchi bir qator xalqlarda uchrashi mavjud adabiyotlarda qayd etilgan. Bu odatga O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Bunda, asosan, ikki xil maqsad ko'zda tutiladi: birinchidan, bolaga ismni ota-bobolar nomidan tanlash bilan o'tmish avlod, ajdodlarni eslash va hurmatlash; ikkinchidan, chaqaloqqa, o'tganlar ruhi, arvohi "yor bo'ladi" uni "qo'llab qo'ltiqalaydi" deb ishonish. Bundan tashqari, kishilar o'z bolasining ismi chaqaloqqa qo'yilgan marhum qarindoshga o'xshasin, o'shandek badavlat yoki botir bo'lsin, xushfe'l, xushmuomalali, mehnatsevar, tirishqoq bo'lsin deb orzu

qilishadi. Mana shunday maqsad va intilishlar zaminida o'tmish ota-bobolarning nomi kishilar tasavvurida aziz va xosiyatli bo'lib qolgan.

Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog'liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir. Ammo o'zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ism bag'ishlovlar. (memorativlar)

Bu gruppaga kiruvchi nomlarning yuzaga kelishi va berilishi sabablari kishilarning tabiat va tabiat mo'jizalari haqidagi qadimiy tasavvurlari bilan, ya'ni ba'zi hayvonlarni, o'simliklarni, jonivorlarni, ilohiy deb bilish, ularga sig'inish, ularni totem sifatida e'zozlanishi bilan bog'liqdir. Bunday ismlarning yuzaga kelishining asosiy negizi qadimiy davr kishilarining so'z (nom) ning sehrli kuchiga ishonishi va undan yordam kutishidir.

O'zbek tili antroponimiyasining turkiy qatlamida quyidagi memorativ ismlar uchraydi:

1) osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar: Yulduz, Oyxon, Kuntug'mish....

2) turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan: Bo'ron, Yomg'ir.....

3) turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar: Dengiz, O'rmon, ...

4) hayvon va qushlarning nomi bilan aloqador ismlar: Qaldirg'och, Qo'chqor...

5) turkiy qabila va urug'larning nomidan yasalgan antroponimlar. Bu nomlarga o'zbekcha va turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan etnonimlardan yasalgan ismlar kiradi: Do'rmon, Barlos...

O'zbek tilida ism-izohlar:

1. Nomda bola organizmidagi muayyan nuqsonlar yoki bola kasalligi bilan aloqador ma'lumotlar ifodalanadi: Ochil, Ochila. Bu ismlar ko'r bo'lib tug'ilgan bolalarga qo'yiladi.

2. Ismlar tanlaganda bola badanida mavjud bo'lgan ba'zi notabiiy belgilar, tashqi alomatlar, qandaydir jismoniy nuqsonlar hisobga olinadi. Shunday qilinsa bola umriga zavol kelmaydi, deb hisoblanadi: Ortiq, Olti, Qo'shoq.

3. Ism bolaning tashqi ko'rinishidagi alomatlariga ishora qilinadi. Oqboy, Qoraboy.

Ism tilaklar (dezirativlar). Bu tip nomlarga quyidagilar kiradi:

1. Ota-onalar chaqaloqning sog'-omon o'sishini, sonining ko'payishini xohlamog uchun: Ko'pay, O'lmas, Yo'lchi, To'xta qo'yishgan.

2. Yangi tug'ilgan bola omon-eson ulg'ayishi va oila a'zolari safiga qo'shilib ketishini xohlashadi: Ilash, Qo'ldosh, Yo'ldosh.

3. Chaqaloq ulg'ayib ota-onasining qarindoshlari o'rnini bosishini xohlashadi.: O'rin, O'tagan.

4. Keyingi farzandlarini qiz emas o'g'il bo'lishini istashadi: O'g'il, Ulbo'lsin.

5. Chaqaloq sog'lom, mustahkam, irodali bo'lib ulg'ayishini turli kasalliklar oldida chidamli bo'lishini xohlashadi. Shu sababli bolaga qattiq, mustahkam narsalar nomidan ism tanlashadi. Bunday nomlarga quyidagilar kiradi:

a) tabiiy narsalar nomidan yasalgan ismlar: Tosh, Temir, Yoqut, Cho'yon;

b) mehnat qurollari, turmush anjomlari nomidan yasalgan ismlar: Bolta, Tesha;

6. Ba'zi holatlarda bolaga ongli ravishda xunuk ma'noli ismlar qo'yiladi. Bu bilan ota-onalar chaqaloqni yovuz kuchlardan, ko'z tegishidan asramoqchi bo'ladi: Itolmas, Felamos, Yamoq.

7. Chaqaloqning yovuz kuchlardan, bevaqt o'limdan asrash uchun qo'yilgan ismlar qatoriga "bolani sotish", "sotib olish", "almashtirib olish" singari odatlar bilan bog'langan nomlar ham kiradi: Sotqin, Topildi.

8. Ota-onalar ism yordamida chaqaloqning yovuz dushmanlarini chalg'itishga, aldashga, bolani bunday kuchlardan yashirishga intiladi va o'shanga mos keluvchi nom tanlaydi: Aldan, Adash, Berkin [51, 6].

Ismlar yuzaga kelishi va qo'yilishiga sabab bo'lgan yuqorida biz keltirgan motivlar turkiy xalqlarda azaldan uchraydi. Hozir ham davom etmoqda. Biroq hozirgi o'zbek yoshlarining ismlariga nazar solar ekansiz, ularning ota-onalari o'z farzandining "ismi-jismiga monand" bo'lishiga qanchalik e'tibor berishlarini payqab olasiz. "Ismi-jismiga monand" deganlaridek, ismlarini havas bilan tilga olamiz. Kattasi Oysanam bo'lsa, kichigi Mahliyo, undan keyingisi Oysulton, yana biri Gulsara, Salomat, Halima, Sevar, – deb yozadi "O'zbekiston xotin-qizlari" jurnali o'z sonlaridan birida.

Darhaqiqat, o'zbek tilida shunday ismlar ham borki, ularda kishilarning o'z farzandiga bo'lgan eng yaxshi tilaklari, odamlarning orzu va intilishlari, zamonaviy ideallari o'z yorqin ifodasini topgan.

Kishilar o'z farzandlarining dovyurak va qo'rqmas bo'lib yetishishini orzu qilishi tilimizda Arslon, Botir, Mard, Sherbek, qahramon, Eryigit, Azamat, Kuchlik, Shijoat, Qaytmas kabi ismlarning tug'ilishiga olib kelgan. Odamlarning haqgo'ylik va adolatga, bilim va ma'rifatga intilishi, o'z bolasining ana shunday fazilatlar egasi bo'lishini orzu qilishi ham qadimiy va tabiiy hodisadir.

Mana shunday orzular Adolat, Odil, Oqiljon, Donoboy, Orifa, Oqila, Fozil, Fozila, erdona kabi nomlarning bizning davrimizga kelib keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

O'zbeklarda qiz bolani nomlashga ancha mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladilar. Qizlar ismi mazmundor, aytilishi qulay, eshitilishi yoqimli hamda ko'rkam bo'lishi lozim. Shu sababli ham qizlarga beriluvchi ismlar go'zallik timsoli bo'lmish yorug'lik va nur, nafislik va poklik tushunchalarini anglatuvchi so'zlardan: Barno, Maftuna, Madina, Mehri, Mubina, Beg'ubor, Marhamat, Xonzoda, Xurshida, Lobar, Matlab, Nozik, Orasta, Tozagul, Nodira, Pokiza; qimmatbaho va nodir predmetlar nomidan Gavhar, Yoqutoy, Kumush, Zumrad, Durjon, Tillaxon; yoshlik va baxtiyorlik, noziklik va iboning ramzi gullar nomidan Nilufar, Nargiz, Gulnoz, Lolaxon, Charos, Gulnor, Rayhon tanlanadi.

Bolaga munosib, yaxshi nom tanlashga intilish-eng qadimiy odat. Oʻtmishda koʻpgina kishilarning bu masala yuzasidan xilma-xil fikrlar bayon qilganini koʻramiz.

Oʻzbek tilshunosligida Z.Doʻsimov toponimik indikator (lot: koʻrsatkich) lar haqida ilk bor alohida maqola eʼlon qildi [34, 18]. Indikatorlar antroponimlarni tilning lugʻat tarkibida oʻziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vositadir. Ular kishi ismlari tarkibida kelib, uni biror jihatdan xarakterlab, konnotativ maʼno ifodalaydi. Har bir indikatorni qabul qilgan antroponim shu indikator uchun mikrotekst vazifasini bajaradi.

Antropoindikatorlar mohiyatan ikkiga boʻlinadi: ichki va tashqi indikatorlar.

Ichki indikatorlar deganda, antroponimdagi antroponimik belgisi uning oʻz ichki imkoniyatidan tushunilib turishi nazarda tutiladi. Chunonchi, antroponimiklarning bosh harf bilan yozilishi, maʼlum bir qurshovda uchrashi va shu nutqiy qurshovda oʻzaro ichki guruhlariga xoslanishi (Raʼno, Malika-ayollar; Qoʻchqor, Bolta-erkaklar ismlari kabi) anglashiladi.

Antroponimlarda tashqi indikatorlik vazifasini turli affiksoid va maʼno umumlashtiruvchi tavsifiy soʻzlar bajaradi.

Antroponimlarga qoʻshilish xususiyatiga koʻra indikatorlar quyidagilarga boʻlinadi:

- I. Erkaklar ismiga xos: jon, xon, bek, sher, arslon, ajdarho;
- II. Ayollar ismiga xos: Oy, oyim, beka, suluv, gul, pari;
- III. Erkak va ayol ismiga qoʻshilishiga koʻra betaraf boʻlgan antropoindikatorlar: jon, xon.

Yuqorida qayd etilgan turli affiksoid va tavsifiy soʻz elementlar kishilarga boʻlgan subektiv munosabatni; badiiy tasvirda muallifning personajga yoki personajning personajga boʻlgan munosabatini koʻrsatishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Xuddi shuningdek, antroponimlar tarkibidagi turli xil indikatorlar kitobxonga hissiy taʼsir qilish, unga estetik zavq berish xususiyatiga ham ega. Bu vositalar orqali kitobxon asar qahramonlarining jamiyatdagi oʻrnini, ruhiy holatini, obraz mohiyatini yanada yorqinroq tushunadi.

Antropoindikatorlar serqirra hodisa bo‘lib, tilshunoslikda o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Antropoindikatorlar xalq og‘zaki ijodi asarlarida ko‘p uchraydi. Maktabda dostonlar va ularning til xususiyatlarini o‘rganish chog‘ida o‘quvchilar diqqatini antropoindikatorlar mohiyatiga qaratish ijobiy samara beradi. “Xon” indikatori ismlar tarkibida ko‘p uchraydi. Bunday indikatorli antroponimlarda yasash asosi va yasovchi vosita birlikda yaxlit otni tashkil qiladi: Atirxon, O‘g‘ilxon, Go‘yoxon, Oppoqxon. Albatta, bolalarga bunday ism qo‘yish jarayonida yangi tug‘ilgan bolaning go‘zalligi, nozikligi, do‘ndiqligi, ota-onaning o‘z farzandiga chuqur mehr-muhabbati, samimiy mehribonligi kabi holatlar ham e‘tiborga olinadi: Popukxon, Iboxon, Iltijoxon, Mo‘ttixon, Durxon kabi.

Ba‘zan-xon unsuri erkaklar ismini bildirgan shaxs otlari ham yasaydi: Dadaxon, Boboxon, Boyxon kabi.

Oy. Bu affiksoid ham erkalash, suyish, ulug‘lash ma’nolaridan tashqari, bir qator turdosh otlarga qo‘shilib, atoqli otlar yasashga xizmat qiladi: Cho‘lponoy, Shirmonoy, Shakaroy kabi. -oy affiksoidi kengayib-oyim shaklida ham keladi. Bu vaqtda ulug‘lash, ehtirom ma’nolari ham anglashiladi: Guloyim, Ulug‘oyim, O‘zbekoyim kabi. Bibi, buvi, ona kabi so‘zlar katta yoshdagi ayollarga nisbatan hurmat, erkalash ma’nolaridan tashqari turdosh otlardan atoqli ot-xotin-qizlar ismini yasashda ham keng qo‘llanadi: Onabibi, Norbuvi kabi. Bu affiksoidlar ba‘zan sifat, son, olmosh kabi so‘zlardan ham atoqli ot yasaydi: Ulug‘bibi, Ofoqbibi, Donobibi, Suluvbibi, Oqbuvi kabi. Bibi, buvi so‘zlari yasash asosi vazifasida kelib, turlicha ma‘no anglatadigan atoqli otlar hosil qiladi: Bibigul, Bibiniso, Bibisuluv kabi.

Gul. Tilda juda ko‘p ishlatiladigan bu so‘z grammatik shakl yasashda ham, yangi so‘z hosil qilishda ham keng qo‘llanadi. Odatda yangi tug‘ilgan chaqaloqni ota-onalar ko‘pincha gulga nisbat beradilar, gul kabi pokiza, nafis, toza, chiroyli bo‘lishini istaydilar. Shu sababli gul unsuri orqali yasalgan xotin-qiz ismlari juda ko‘p uchraydi. Bu so‘z yasash asosi bilan birikib, chuqur ma’noli juda ko‘p yangi so‘zlar hosil qiladi: Baxtigul, Donogul kabi.

Gul unsuri soʻz yasash asosi vazifasida ham keladi. Bu vaqtda ham xilma-xil maʼno anglatgan atoqli otlar-xotin-qizlarning ajoyib ismlari hosil boʻladi: Gulandom, Gulasal, Gulbadan, Gulnora kabi.

Dil, qalb, yurak maʼnosidagi bu soʻz ham xotin-qizlar ismini hosil qilishda keng qoʻllanadi. Bunda ham ota-onaning oʻz farzandlari-qizlariga boʻlgan orzu-istagi, yurak soʻzlari oʻz ifodasini topgan. Dil soʻzi koʻpincha yangi hosilaning yasash asosi vazifasida keladi: Dilorom, Dilafroʻz kabi.

Bulardan tashqari xotin-qizlar ismini hosil qilishda niso, xol, nor, beka, bika, oyim, buvish, momo, toʻti, chuchuk kabi affiks va affiksoidlar turlicha maʼno anglatgan soʻzlarga qoʻshilib, erkalash, ulugʻlash, hurmat maʼnolarini ifodalash va turkiy muannas (jins) shaklini hosil qilishi uchun xizmat qiladi: Oyniso, Xolbeka Xolposhsha, Tillabuvish, Norbegim, Baxtibonu, Xolchuchuk kabi.

Oʻzbek tilida erkaklar ismini hosil qilishda ham forma yasovchi affikslar keng qoʻllanadi. Bular quyidagilar:

Jon. Bu soʻz oʻz mustaqil maʼnosi va erkalash, suyish, hurmat kabi maʼnolari bilan turdosh otlarga qoʻshilib, uni atoqli otga aylantirishga xizmat qiladi.: Bobojon, Otajon, Mullajon, Pirjon kabi.

Boy. Subyektiv baho shakli hosil qilish bilan birga, turdosh otlarni atoqli otga aylantirishda ham koʻp ishlatiladi: Abdiboy, Dovulboy, Markaboy kabi. Bu affiksoid sifat, son va feʼllardan ham atoqli ot yasashga xizmat qiladi: Yaxshiboy, Yetmishboy, Toʻqsonboy kabi. Bir qator atoqli otlarda “boy” soʻzi yasash asosi vazifasida ham keladi: Boytemir, Boytoy kabi.

Bek hurmat, erkalash maʼnoli grammatik shakllar yasash bilan birga, turdosh otlardan atoqli ot hosil qilishda ham qoʻllanadi: Oybek, Elchibek, Elbek kabi. Xuddi shu maʼnoda yasash asosi vazifasida ham keladi: Bektosh, Bekqul, Bektoy kabi.

Qul. Bu soʻz oʻzining dastlabki maʼnosidan uzoqlashgan boʻlib, koʻpincha erkalash, suyish maʼnolarida, shuningdek, turdosh otlarni atoqli otga aylantirishda qoʻllanadi: Eshqul, Sherqul kabi.

Toy. Shakl yasovchi bu affiksoid ham erkalash, suyish, orzu-istak ma'noli shakl yasash va turdosh otlarni atoqli otga aylantirishga xizmat qiladi: Erkatoy, Shertoy, Eshtoy kabi.

Shunday qilib, shaxs nomlariga qo'shilib kelgan turli xil antropoindikatorlar ushbu shaxslarning jamiyatdagi mavqei, o'rnini ko'rsatish bilan birga kitobxonga ma'lum bir ruhiy zavq beradi, badiiy tasvirda obraz mohiyatini yanada yorqinroq anglashga yordam beradi.

2.2. O'ZBEK TILIDA TOPONIMLAR

Toponim – (lotincha: topos – yer, onuma – nom, ism) joy, yer nomi demak. Joy nomlari yig'indisi toponimiya. Joy nomlarini o'rganuvchi fan toponimika deb ataladi. Joy nomlari o'zbek tili lug'at boyligining bir bo'lagini tashkil qiladi. Ularda xalqimiz tarixi, urf-odati mashg'uloti, madaniyati aks etgan bo'ladi. Tarix sahifasini varaqlaganda ajoyib va g'aroyib nomlarni uchratamiz, hatto bir joyning o'zi o'ndan ortiq nom bilan atalganligini ko'ramiz.

Toponimika tarix, geografiya, etnografiya va filologiya oralig'idagi fan bo'lib, bu fanlarni atroflicha o'rgangandagina haqiqiy toponimist bo'lish mumkin.

Toponimika fan sifatida yaqindagina shakllangan bo'lsa ham, O'rta Osiyodagi atoqli otlar etimologiyasi, ma'no va qo'llanishi haqidagi fikrlar Beruniy, M. Koshg'ariy, Navoiy, Bobur asarlarida ko'p uchraydi. Toponimlarni ilmiy asosda o'rganishda G.Vamberi, E.M.Murzayev, S.P.Tolstov, V.A.Nikonov, A.A.Abdurahmonov, T.Jonuzoqov, H.Hasanov, R.Qung'urov va boshqalarning xizmati katta [24]. Jumladan, A.Vamberi (1832-1913) geografik nomlarga atab maxsus lug'at tuzgan. «Markaziy Osiyoning geografik nomlari» deb ataluvchi ushbu lug'at alfavit tartibida bo'lib, 600 tacha nom va terminni qamrab olgan. Geografik nomlarni lingvistik aspektda va ilmiy asosda o'rganishda H.Hasanovning hissasi katta. Uning «Geografik nomlar imlosi», «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» asarlari muhim ahamiyatga ega [24].

Toponimika ilmini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan professor T.Nafasovning «Qashqadaryo oblasti toponimlari» (1969) nomli nomzodlik dissertatsiyasi yirik ilmiy ishlardan biridir. Olimning «O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati» o'ziga xos izchillikka ega [54].

S.Qorayevning «O'zbek toponimikasini o'rganish tajribalaridan» nomli nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek tarixiy toponimikasini monografik tarzda o'rganish ishini boshlab berdi.

Xorazm viloyati toponimlarini o'rganishda professor Z.Do'simovning tadqiqotlari, ayniqsa, doktorlik dissertatsiyasi joy nomlari strukturasi, grammatik tasnifini o'rganishda muhim ahamiyatga ega [6; 34; 35; 53].

O'zbek tilshunosligida toponimik tadqiqotlarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan X.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, K.Yusupov, Sh.Qodirova, L.Karimova, B.O'rinboyev, Q.Xurramov, S.Naimov va boshqalarning ilmiy asarlarini izchil o'rganish, hayotga tadbiiq etish, yangi-yangi toponimik tadqiqotlar olib borishga undaydi.

Toponimlarni monografik holatda o'rganish ishlari hozir ham davom etmoqda. Jumladan, T.Enazarovning yakinda nashr kilingan monografiyasida toponimlarni etimologik tadqiq qilish usullari, tamoyillari, barqaror omillari va motivlashuv jarayonlari atroflicha yoritilgan [17].

Toponimlarni talqin qilishda shu tilning tarixini, so'zlarning kelib chiqishini, rivojlanishini, xususan boshqa tillar bilan munosabatini, tipologik qiyosini turli lingvistik mezonlar bilan solishtirib o'rganish talab etiladi.

Ma'lumki, toponimlar ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'lingan holda tasnif qilinadi. Toponimlarning bu xususiyati haqida E Qilichev 2008-yil "Buxoro" nashriyotidan e'lon qilingan "O'zbek tili onomastikasi" kitoblarida bir qancha fikrlarni bildirib o'tganlar: "Til lug'at tizimida toponimlarning o'rni, o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ularni lisoniy hamda nutqiy nuqtayi nazardan tasniflash muhim ahamiyatga ega. Bular quyidagilar:

1. Leksik-semantik jihatdan toponimlar: oykonim, gidrotoponim, oronim, etnotoponim, biotoponim va boshqalarga bo'linadi .

2. Struktur-tipologik jihatidan: tub, yasama, o'z va o'zlashgan qatlamga bo'linadi.

Birgina o'zakdan tashkil topgan toponimlar tub hisoblanadi: Buxoro, Urganch, Qarshi.

Yasama toponimlar quyidagi usullar bilan hosil bo'ladi: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya.

Affiksatsiya usulida quyidagi toponimlar yasalgan:

-li: Yong'oqli, Jiydali, Chumchuqli.

-cha: Bodomcha, Sho'rcha, Qizilcha.

-lik: Suvlik, Shivoqlik.

-zor: Olmazor, Yong'oqzor va h.k.

Kompozitsiya usuli: Qirqqozon, Oqtepa, Uchquduq, Qorako'l.

Konversiya usuli: 1) etnonim toponimga o'tadi: Olchin, Mang'it.
2) toponimlar toponimga o'tadi: O'zbekiston (qishloq), Urganch (qishloq) "

O'zbekistonda ko'p asrlik tarixiy davr mobaynida turli millat va elat vakillari yashab o'tgan va yashamoqda. Ularning har biri toponimlarda o'ziga xos iz qoldirgan. Shu sababli O'zbekiston toponimlarini o'z va o'zlashgan qatlamga bo'lib o'rganish lozim.

O'zlashgan qatlam toponimlarini to'rt katta guruhga ajratish mumkin:

Arabcha: Madaniyat, Xo'ja, Kitob.

Forscha-tojikcha: Kesh, Denov, Sariosiyo.

Ruscha: Pushkin (ko'cha), Shevchenko (maktab).

Aralash tipdagi toponimlar: Arabxona, O'zbekiston, Elchixona.

1. Xronologik jihatdan:

Qadimgi toponimlar: Shosh, Nasaf, Foxira (Buxoro), Varaxsha.

Yangi toponimlar: Guliston (shahar), Zarafshon (shahar), Mustaqillik (maydon).

1. Obyekt hajmining ifodalanishiga ko'ra:

1. Makrotoponimlar.

2. Mikrotoponimlar.

Makro va mikrotoponimlarni o‘zaro farqlab turuvchi belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- makrotoponimlar yirik, ulkan obyektlarning nomlari.
- mikrotoponimlar mayda, kichik jo‘g‘rofiy obyektlarning nomlari.
- mikrotoponimlar apellyatga yaqin turadi.
- mikrotoponimlar nomlash ma‘nosiga ko‘ra ko‘proq tabiiydir.
- makrotoponimlar ko‘pchilikka ma‘lum, mikrotoponimlar kam ma‘lum.
- mikrotoponimlar tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Makrotoponimlar deyarli o‘zgarmas.

- miqdor jihatdan mikrotoponimlar ko‘pdir.
- mikrotoponimlarga ayrim misol sifatida nekronimlarni ko‘rsatish mumkin.

Nekronim-grekcha: qabriston nomi demakdir. Buxoro viloyatida hazrati Bahovuddin, Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniylar maqbara va masjidлари mavjud.

Hozirgi tilimizdan «qo‘rg‘on», «qishloq», «shahar» ma‘nosida ishlatilgan: - kat, kand,-duvon,-jiz,-metan kabilar yordamida yasalgan oykonimlar faol qo‘llanmoqda: Shirikat, G‘ijduvon,Xonjiza, Romitan. Oykonimlarning turli tiplari mavjud. Aholining mashg‘uloti, kasb–hunar bilan bog‘liq oykonimlar: Taqachi, Degriezlik, Telpakdo‘z; O‘simlik va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq: O‘rikzor, Olmaliq (Toshkent), Chiyali (Qashqadaryo) kabi.

Oykonimlarning asosiy qismini etnooykonim va antropooykonimlar tashkil etadi.

Antropooykonimlar. Antropooykonim – lotincha: antropo – odam, oykos – joy demak. Kishi ismlari bilan atalgan joy nomlari antropooykonimlardir. Toponimiyada antropooykonimlarning salmog‘i ko‘p.

Antropooykonimlarning ko‘pchiligi qadimda xonlar va ularning avlodlari, amaldorlar, eshon va avliyolarning nomlari asosida tashkil topgan. Farg‘ona viloyatida Xudoyorxon, Mallaxon; Buxoroda Olimxon; Bahovuddin, Samarqandda Sultonobod, Xo‘ja Ahror va boshqa qishloq nomlari bunga misol bo‘la oladi.

Etnooykonimlar. Joy nomlarining katta bir qismini etnooykonimlar tashkil qiladi.

Etnonim (lotincha: etnos – xalq, urug‘, nomos – nom)lar atoqli ot (toponim) vazifasiga ko‘chgach, u ma’no va vazifasiga ko‘ra o‘zgaradi. Avval etnonim sifatida kishilarning ma’lum ijtimoiy tarixiy guruhi ma’nosini anglatgan bo‘lsa, endi u yakka tushuncha, yakka obyektning nomiga aylandi [19].

Quyida etnooykonim izohi beriladi:

Qatag‘on – Vobkent tuman, Oxunboboyev jamoa xo‘jaligi territoriyasidagi qishloq nomi (ushbu satrlar egasi shu qishloqda tug‘ilgan). Bu oykonim qatag‘on etnonimi bilan bog‘liq. Qatag‘on tarixan o‘zbek xalqi qatoriga kirgan yirik qabilalardan birining nomidir. Qatag‘onlar bir necha urug‘larga bo‘lingan, o‘tmishda ular chorvachilik bilan shug‘ullangan. Demak, urug‘ nomi joy nomiga aylangan.

Oronimlar. Tog‘ va tog‘ tizmalarini ifodalovchi oronimlar barcha turkiy tillarda tog‘, dag‘, tau, tov, shakllari bilan ifodalangan leksemalar asosida yaratilgan: Qoratog‘, Temirtog‘, Olatog‘. Xuddi shuningdek, oshuv, gaza, bil, darband, qir, sina, tepa kabi qator leksemalar yordamida ham oronimlar vujudga kelgan: Qiziltepa, Qashqabel, Xizirsina qir leksemasi "Devoni-lug‘otit-turk" da ikki ma’no: g‘ov, to‘g‘on hamda yassi tog‘ni ifodalashi ko‘rsatilgan.

2.3. O‘ZBEK TILIDA GIDRONIMLAR

Gidronim – lotincha: suvliklar nomi. O‘zbekiston toponimiyasi gidronimlarga juda boydir.

Gidronimlar tarkibidagi ko‘rsatkich (indikator)lar ma’nosi, gidronim yasashdagi o‘rnini hamda morfema sostavini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Toponimlar yasashda suv leksemasi juda faol qo‘llaniladi va deyarli turkiy tillarning barchasida uchraydi. “Devonu lug‘otit turk”, “Tafsir”, “Boburnoma” asarlarida su, suu, suv, sub, suy shakllarida ishlatilganligini ko‘ramiz. Toponimlar tarkibidagi suv so‘zi “ariq”, “daryo”, “buloq” semalariga ham ega: Qorasuv, Oqsuv, Kattasuv kabi.

Ko‘l komponentli gidronimlar ham deyarli barcha turkiy tillarda uchraydi: Issiqko‘l, To‘dako‘l (Buxoro), Ayg‘irko‘l (Jizzax).

Qozoq tilshunos olimi T. Djonuzoqov Qozog‘iston territoriyasida 85 mingdan ortiq daryo borligi va ularning nomlari, asosan, qadimgi turkiy qatlamga mansubligini ko‘rsatadi. (qarang: T.Djonuzoqov “Общeturкские основы казахских гидронимов древнейшего периода). Shu olimning qayd etishicha, Kasbiy va Orol dengizlarining nomi Geradot, Ptolomey asarlarida uchraydi [10, 27].

Kasbiy dengizi nomlari hamda kasbiy so‘zining etimologiyasi haqida fikr yuritish kerak deb, o‘ylaymiz. H.Hasanovning ko‘rsatishicha, Kasbiy dengizning 70 tacha nomi aniqlangan. Mazkur dengiz o‘z tevaragidagi viloyatlarning nomi bilan, sohilidagi shaharlar nomi, o‘ziga quyiladigan daryolarning, atrofida yashovchi xalqlarning oti bilan atalgan: Xazar dengizi, Saroy dengizi, Xorazm dengizi, Oq dengiz, Xuroson dengizi, Fors dengizi va h.k [24].

Kasbiy so‘zi kas va (pi) elementlaridan tashkil topgan. Kas (xalq nomi) pi (bi) ko‘l, buloq ma’nolarini bildiradi. Kasbiy gidronimi Kas degan xalqqa tegishli ko‘l degan ma’noni bildiradi [4, 26].

O‘zbekiston chegarasidan o‘tuvchi Amudaryo va Sirdaryo nomlari qadimgi grek va Xitoy, turk yozma yodgorliklarida uchraydi. Bugungacha uning Amudaryo-Jayhun, Xalaf, Oks, O‘kuz, Xorazm daryo, Urganch daryo deb nomlanganini ko‘ramiz. Sirdaryo esa Farg‘ona daryosi, Banokat daryo, Sayhun, O‘tror daryo nomlari bilan atalgan. Bu hol gidronimlarda poluonimiya hodisasining mavjudligini ko‘rsatadi.

Gidronimlar tarkibidagi turli so‘zlar ularga xos ma’no xususiyatlarini aks ettirib turadi. Agar:

-daryo nomi tarkibida “ort” yoki “dovon” so‘zlari bo‘lsa, ular boshlanadigan joy ma’nosi ifodalanadi; Og‘ochort, Yangidovon.

-daryo nomi tarkibida «ota» so‘zi bo‘lsa, bu suv biron diniy shaxsning mozori yonidan oqib o‘tadi; Qo‘chqorota, Qirg‘izota.

-daryo nomi tarkibidagi “qul” soʻzi dara, jarlikdan dalolat beradi: Kulmambet.

-koʻllar nomi tarkibidagi “oyna” soʻzi tiniq, toza maʼnosidadir: Oynakoʻl, Oynabuloq.

Tabiiy gidroobyekt atamalarining paydo boʻlishi har xil boʻlib, ular quyidagicha xususiyatlarga koʻra nomlanadi:

Suvning fizik xarakteriga bogʻliq holda nom olgan gidronimlar: Achchiqkoʻl, Shirinsoy, Moybuloq (Samarkand), Shoʻrkoʻl (Buxoro).

Flora va fauna nomlari bilan bogʻliq boʻlgan holda nom olgan gidronimlar: Laylakkoʻl, Ilonlikoʻl, Gʻozariq.

Etnonimlar bilan bogʻliq nom olgan gidronimlar: Qiyotkoʻl, Naymanariq, Qatagʻonbuloq.

Avliyolar, mashhur shaxslar, xonlar nomlari asosida paydo boʻlgan gidronimlar: Xizirariq, Shohobod (Buxoro), Qilichboy (Xorazm).

Oʻzbek tilida sugʻorish madaniyati xalq turmushi bilan bogʻliq holda gidronimlar tarkibida quyidagi soʻzlar uchraydi: daryo, jilgʻa, koʻl, anhor, ariq, darak, ob, buloq, soy, quduq, joʻy, hovuz, chashma, qoq, arna, yop, solma, shox, nov, nova, quloq, band, tugʻon, kart, guzar, kechik, suv ombori, zovur, kanal va boshqalar.

Qayd etilgan leksemalarning gidronimlar yasashdagi va areali bir xil emas. Ariq buloq, quduq, soy leksamalarining chastotasi koʻp, areali keng. Arna, yop, kabi leksemalar qadimiy va faqat Oʻrta Osiyoda uchraydi.

Tarkibida sugʻorish leksamalari boʻlgan Oʻzbekiston gidronimlarining morfologik tuzilishi xilma-xil modeldadir: Otqot: qumariq, Toshquduq; sifatqot: Oqsoy, Qorabuloq, BonQot: Beshariq (Buxoro), Yettisoy (Qozogʻiston), Qoʻshariq (Buxoro).

3-bob.

“YULDUZLI TUNLAR” ASARIDAGI ONOMASIONIMLAR TAHLILI

3.1. ANTROPONIMLAR

“Yulduzli tunlar” asari onomastikasining lugʻaviy tarkibini, atoqli otlarning tasniflash muammolari, buning usul va yoʻllari yuzasidan qisqacha muloohazalar bildirilgan. Nomshunoslikda biror bir tildagi atoqli otlarning jamiki koʻrinishlari majmui “onomastik koʻlam” (“ономастическое пространство”) deb yuritilmoqda. Maʼlum tilning onomastik koʻlami va adadi uning sinxronik, yaʼni zamonaviy holatidan kelib chiqib baholanadi, har qanday tildagi atoqli otlar tizimini, uning umumiy majmuyini ham baholash mumkin. Bizning kuzatishimizcha, “Yulduzli tunlar” asarida 450 dan ortiq atoqli ot mavjud. Ulardan 210 tasi antroponimlar yaʼni kishi nomlari, 184 tasi toponimlar yaʼni joy nomlari, 18 tasi gidronimlar yaʼni suvliklar nomlari, 2 tasi bayram nomlari, 5 tasi mansab-unvon nomlari, oronimlar 22 ta, 18 tasi badiiy ijod namunalari, 2 tasi qoʻshiq nomi, 10 tasi majsid-maqbara nomlari, va boshqa bir qancha nomlar mavjuddir. Oʻz navbatida bu nomlar ham yana mayda guruhlariga boʻlinadi.

Onomastika keng qamrovli tushuncha ekanligi haqida yuqorida taʼkidlagan edik. “Yulduzli tunlar” asarida ham deyarli atoqli otlarga tegishli boʻlgan barcha turdagi nomlar uchraydi. Biz bu tadqiqotimizda, asosan, antroponimlar, toponimlar va gidronimlar haqida toʻxtalib oʻtmoqchimiz, qolgan onomastik birliklar haqida keyingi tadqiqotlarimizda alohida toʻxtalib oʻtishni maqsad qilganmiz.

“Yulduzli tunlar” romanida antroponimlar, yaʼni kishi nomlari ning oʻzi onomastik tizim boʻlib, u yana tizimchalarga boʻlinadi. Jami 210 ta antroponim soʻz boʻlib, u 5 guruhga boʻlinadi:

1. Ismlar: 208 ta, Tangrim sizni panohida asrasin, Tohir ogʻa. [57, 5].

2. Laqablar: 2 ta, U childirma chalib “koʻchiriq” qilishni ham bilar edi,”Koʻtaruvchi” degan laqabi bor edi.[57,170]

Asarning bunday bo‘linishi tashqi ko‘rinishiga qarab baholanadi va ana shu bo‘linishlar orqali asar qahramonlarining kim ekanligi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz. Ismlar bir shaxsni boshqasidan farqlash uchun yuzaga kelgan. Qadim-qadim zamonlardan insonlar qo‘yilgan ism birlarini boshqalaridan farqlash uchun xizmat qilgan. “Yulduzli tunlar” asarida ham yozuvchi tomonidan turli-tuman kishi nomlari qo‘llanilgan bo‘lib, ular ham bir shaxsni boshqasidan farqlash maqsadida qo‘llangan. Ayni paytda familiyalarning ishlatilishi bir yakka shaxsni boshqasidan ajratishni yanada aniqlashtirilgan ko‘rinishidir, shu bilan bir qatorda familiyalarning yakka o‘zi ishlatilishi o‘sha insonga bo‘lgan hurmat ma’nosini ham ifodalaydi. Ammo roman tarixiy bo‘lganligi bois bugungi kun doirasidagi familiyalarni uchratmaymiz. Romandan olingan quyidagi parcha buning yorqin isbotidir. “Bu – Umarshayx mirzoning qizi Xonzoda begim” [57, 13]. Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki “mirzo”so‘zining qo‘shib aytilishi, bir tomondan bir insonni boshqasidan farqlash, uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa hurmat ma’nosini, mansab ma’nosini anglatar ekan. .

Turkiy tillarning barchasida juda ko‘psonli laqab nomlar mavjud bo‘lib, ularning materiallari yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Laqablar (diniy talablardan qat’i nazar) tabiiy kundalik ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgan. Chunki o‘tmishda hozirgidek nomlar bo‘lmagan, shu sababli bir xil ism egasi bo‘lib qolgan otdosh shaxslarni o‘zaro farqlashda laqablar juda qo‘l kelgan, Shuningdek laqablar ba’zi oilalarda aytilishi man qilingan ismlar o‘rnini bosishi lozim bo‘lganligi uchun ham yaratilgan. Qadimiy tabu va evfimistik an’analarga ko‘ra oilada kelin o‘z erining, qaynota va qaynonasining, qayinsingil va qayinlarining, erining boshqa qarindoshlarining nomini tilga olmagan. Ularda o‘zi ijod qilgan maxsus laqab nom bilan murojaat etgan. Xuddi shuningdek, chaqaloqqa marhum buvisi, bobosi, ammasi, xolasi yoki boshqa qarindoshlar nomi berilgan bo‘lsa, bunday bolaga uning nomini aytib murojaat qilishmagan. Chunki bunga amal qilmaslik nomning asl egasi bo‘lmish marhumga nisbatan hurmatsizlik bo‘ladi, deb hisoblashgan. Nomning asl egasi bo‘lmish bobo yoki buvining amma yoki amakining noroziligi esa chaqaloqqa baxtsizlik keltirishi mumkin deb

o'ylashgan. Mana shunday hollarda bolaga qo'shimcha ism-laqablar berilgan va unga o'sha laqabni aytib murojaat qilishgan. Ko'p holda bolaning laqa, mansab ma'bi uning asosiy ismiga aylanib ketgan. Ana shunga o'xshagan laqablar "Yulduzli tunlar" asarida ham qo'llangan, asarda ishlatilgan laqablarni ko'rar ekanmiz, ularning ko'lami nihoyatda keng ekanligini ko'ramiz. Asarda uchraydigan laqablarning ko'pchiligi asar qahramonlarining xarakteri, yurish-turishi, kasb-kori tufayli qo'yilgan."U childirma chalib "ko'chiriq" qilishni ham bilar edi,"Ko'taruvchi" degan laqabi bor edi [57, 136]. Ushbu misolda keltirilgan insonning asl ismi nima ekanligi ma'lum, laqabi orqali esa hamma uni taniydi.

Ism familiyalar bilan atash ham ismlarni atashning keyinchalik vujudga kelgan ko'rinishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Har bir ism o'z obyekti jihatidan tirli xil axborotlarni berishi mumkin."Robiya, inon, men tirik bo'lsam, senga balo-qazoni yo'latmasman..." [57, 5]. Keltirilgan ushbu misolda Robiya ismi til birligi (lisoniy) sifatida shaxsni ifodalaydi, nutqiy informatsiyada esa so'zlovchining shu ismga munosabatini bildiradi. Ushbu misolda Tohirning bo'lajak turmush o'rtog'i bo'lmish Robiyaga bo'lgan mehri o'z aksini topgan. Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan applyativ ma'noga yaqinlashadi, ya'ni "Robiya – to'rtinchi farzand" [47, 429] degan ma'noni anglatadi. Demak, har bir ism ota-onaning orzu-istaklari, xoxishlari sababli qo'yiladi, Robiya ismi ham uning ota-onasi bo'lgan insonlarning farzandiga bo'lgan mehr-muhabbati sababli qo'yilgan. Shuning uchun bu kabi ismlarni Ism tilaklar (deziratovlar) deb atash maqsadga muvofiqdir.

Har bir ism xalq tarixini ifodalaydi, bu kabi nomlar "Yulduzli tunlar" romanida ham uchraydi, jumladan, har bir davrning o'ziga xos ism qo'yish odati bo'lgan. Chunonchi, ibtidoiy va urug'chilik davrida qo'yilgan ismlarda mardlik, qahramonlik kabi tushunchalar o'z ifodasini topgan bo'lsa, islom dini kirib kelishi bilan dinga aloqador bo'lgan ismlar bolaga qo'yila boshlandi. "Yulduzli tunlar" romanida uchraydigan, Abubakr, Hasan Yoqub, Abu Yusufbek, Umar, Usmon, Ali kabi ismlar shular jumlasidandir.

To‘laqonli badiiy obrazning yuzaga kelishida qahramonning portreti (tashqi qiyofasi), nutqi bilan bir qatorda uning ismi ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, jahon adabiyotining mashhur so‘z san’atkorlari o‘z asarlari qahramonlari ismiga jiddiy e’tibor berishgan, jumladan, A.P.Chexov shunday degan edi: “Faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va faoliyatlarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo‘lishi kerak”. Darhaqiqat, qahramonlarning nomi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Asarda uchraydigan Alpomish, Davlatxon, Olamxon, Bahodir kabi nomlarda shu kabi xususiyatlar o‘z aksini topgan, Ismning ma’no-mohiyatidan shu narsa anglashilinib turibdiki, yozuvchining tanlagan ismi asar qahramonining barcha xarakter-xususiyatiga to‘laqonli ravishda aks ettirmoqda, chunki Bahodir nomi ostidagi qahramonning xarakter-xususiyati, dunyoqarashi ismining ma’no-mohiyatiga mos keladi..

Ism tanlashda ko‘pincha tabarruk nomlar tanlanadi. Bolaga ismni ota-bobolar nomidan tanlash bilan o‘tmish avlod, ajdodlarni eslash va hurmatlash va chaqaloqqa, o‘tganlar ruhi, arvohi “yor bo‘ladi” uni “qo‘llab-quvvatlaydi” deb ishonish kabi xususiyatlar. Bundan tashqari, kishilar o‘z bolasining ismi chaqaloqqa qo‘yilgan marhum qarindoshga o‘xshasin, o‘shandek badavlat yoki botir bo‘lsin, xushfe‘l, xushmuomalali, mehnatsevar, tirishqoq bo‘lsin deb orzu qilishadi. Mana shunday maqsad va intilishlar zaminida o‘tmish ota-bobolarning nomi kishilar tasavvurida aziz va xosiyatli bo‘lib qolgan. Odamlar esa farzandlariga arabcha nomlarni qo‘yishga e’tibor bera boshlaganlar, Pirimqul Qodirov ham shu udumdan uzoqlashmagan holda o‘zi yaratgan qahramonlarga asosan, arabcha bo‘lgan nomlarni tanlaydi. Bularga misol qilib Roziya, Umar, Ali, va shu kabi nomlarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Asarda qo‘llanilgan ismlarni asosan, ma’no doirasiga ko‘ra va qaysi tilga mansubligiga ko‘ra tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’no doirasiga ko‘ra ismlar quyidagi asosiy qismlarga bo‘linadi

a) asrovchi ismlar;

b) qayd qilingan xususiyatiga ko‘ra ismlar;

d) yasalish xususiyatiga ko‘ra ismlar;

e) axloqiy- tarbiyaviy omillar bilan bog‘liq bo‘lganligiga ko‘ra.

Asarda ta asrovchi ismlar qo‘llangan bo‘lib, ular yana guruhlariga bo‘linadi

1) diniy tushuncha va e‘tiqod bilan bog‘liq nomlar:

a) Ollohning nomi, sifatlari, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar: Sattor, Hofiz.

b) xalifalar, ba’zi sahobalar, aziz avliyolarning nomlariga nisbat berilgan ismlar: Ali, Umar, Usmon.

d) payg‘ambarning farzandlari, qarindoshlari, yaqinlari nomidan olingan ismlar: Hasan, Husan, Tohir - Muhammad payg‘ambar o‘g‘lining ismi.

Oysha, Zuhra - Fotimaning laqablari.

Qayd qilingan xususiyatiga ko‘ra 20 ta ism qo‘llangan.

a) umumilliy, umumudum ismlar: Safarbek, Faxriniso, Faxriddin.

b) oilaviy doirada ma’lum ismlar: Navoiy, Rustam, Iskandar, Farhod.

Yasalish xususiyatiga ko‘ra 30 ta ism qo‘llangan .

a) ba’zi shirinliklar, lazzatli narsalar nomidan: Shirin.

b) go‘zallik va nafosat tushunchalarini anglatadigan ismlar: Qorako‘z begim, Oysha begim, Dilovarxon, Hasan, Husan.

Axloqiy-tarbiyaviy omillar bilan bog‘liq bo‘lganligiga ko‘ra ismlar 35 ta.

a) adolatli, halol, odil inson bo‘lib ulg‘ayishiga ko‘ra: Adolat

b) bilimli, donishmand bo‘lib ulg‘ayishiga ko‘ra: Olimxon.

d) ulug‘ va buyuk bo‘lishiga ko‘ra: Faxriddin, Faxriniso, Navoiy, Ulug‘bek mirzo.

e) mard va jasur, mehribon, rostgo‘y, sabrli, rahmli bo‘lish xususiyatiga ko‘ra: Iskandar, Lochin, Bahodir, Alpomish, Rustam,

f) tolei baland, omadi yuksaluvchi bo‘lsin deb qo‘yilgan ismlar: Malika, Usmon.

Asarda asosan, arabcha, o‘zbekcha, fors-tojikcha va boshqa tillarga mansub bolgan nomlardan foydalanilgan..

Bizga ma'lumki, antroponimik indikatorlar kishi nomlari bilan birgalikda kelib, uni xarakterini yoritishda hamda konnotativ ma'no anglashda xizmat qiladi. "Yulduzli tunlar" romanida ham antroponimik indikatorlar qo'llangan nomlar mavjud. Bu kabi nomlar badiiy tasvirda muallifning personajga yoki personajning personajga bo'lgan munosabatini ko'rsatishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Ushbu indikatorlar orqali personajlarning salbiy yoki ijobiy qahramon ekanliklari yoki ularning qanday xarakter-xususiyatlari borligi haqida ma'lumot beradi. Xuddi shuningdek, antroponimlar tarkibidagi turli xil indikatorlar kitobxonga hissiy ta'sir qilish, unga estetik zavq berish xususiyatiga ham ega. Bu vositalar orqali kitobxon asar qahramonlarining jamiyatdagi o'rnini, ruhiy holatini, obraz mohiyatini yanada yorqinroq tushunadi. Shunday qilib asarda turli xil indikatorlardan foydalanilgan. "Yulduzli tunlar" romanida jon so'zi bilan yasalgan indikatorlar qolganlariga nisbatan ko'proq uchraydi. Bu indikator erkaklar ismini hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu so'zning asl ma'nosi yuqorida ta'kidlanganidek erkalash, suyish va hurmat qilishdir. "Muhammadjon eshik og'asi Xo'ja xalifaning harakatlarini sergak turib kuzata boshladi" [57, 323]. Keltirilgan ushbu misolda hurmat ma'nosi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'rinadiki, ushbu Muhammadjon eshik og'asiga hammaning hurmati baland, shu sababli yozuvchi Muhammad ismiga jon affiksini qo'shish orqali ushbu nomga konnotativ ma'noni yuklayapti.

Jon indikatorining yana bir muhim jihati shundan iboratki, ushbu affiks turdosh otlarga qo'shib ularni atoqli otlarga aylantiradi. Xuddi shunday jihat "Yulduzli tunlar" asarida ham uchraydi. O'z navbatida bu turdosh otlarga jon affiksi qo'shilishi natijasida ular atoqli otlarga aylanadi.

Yana bir antroponimik affikslardan biri bek so'zidir. Ushbu affiks asarda ham uchraydi." [57, 334]. Ushbu affiks subyektiv baho shakli ham hisoblanadi. "Marg'ilonlik Xo'ja Kalonbek, uning ukasi va Kichik Xoja degan navkarlar Xonzoda begimni ko'rmoqchi" [57,440]. Ushbu misolda bek affiksida hurmat va shunga o'xshagan ma'nolar o'z aksini topadi. Xon affiksiodi asarda Hasan nomiga qo'shib, yangi bir hodisa vazifasini ataydi. Bizga ma'lumki, xon affiksiodi qizlar nomiga qo'shiladi, asarda esa bu qo'shimcha erkaklar nomiga qo'shilgan.

Erkaklarga nisbatan bunday affikslarni qo‘llash ma’lum bir hududlarga nisbatan qo‘llanadi. Yozuvchi aynan vodiy tomonlarda erkaklar ismiga bunday affikslarning qo‘shib aytilishi haqida ma’lumot berib o‘tyapti. O‘z navbatida xon affiksi ayollarning ismiga ham qo‘shilib keladi, lekin asarda ko‘p hollarda xon affiksi erkaklar ismiga qo‘shilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, xon va shunga o‘xshagan affikslar ham qizlar ismiga nisbatan, ham erkaklar ismiga nisbatan ham ishlatilishi mumkin ekan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xon affiksi betaraf qo‘shimchalardan biri hisoblanadi. Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta’sir ko‘rsatadi deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining o‘ziga o‘xshaydi degan noto‘g‘ri tushuncha bilan bog‘liq. Romanda uchraydigan nomlar ham shu xususiyatdan kelib chiqqan holda tanlangan, bola chiroyli, go‘zal bo‘lsin degan niyatda Qorako‘z begim, Dilovarxon, Hasan, Husan kabi nomlar tanlangan, ayni paytda yozuvchi tomonidan yaratilgan qahramonlarda yuqorida aytilgan sifatlar mavjud. Bolaga munosib, yaxshi nom tanlashga intilish-eng qadimiy odat. O‘tmishda ko‘pgina kishilarning bu masala yuzasidan xilma-xil fikrlar bayon qilganini ko‘ramiz. Masalan, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy bolaga nom qo‘yganda tanlanadigan ism kishiga munosib bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi va farzandingiz ulg‘ayganda o‘z otining noqulayligidan uyalmasin deydi:

Birisi qo‘ymoq erur yaxshi ot

Kim desalar topmagay andin uyot.

Bu jihatdan Alisher Navoiyning tomonidan o‘z asarlari qahramonlariga bergan nomlari juda xarakterlidir. Masalan, uning

“Xamsa”sida shunday parchalarni uchratamiz:

Diloromu, Diloroyu, Diloso,

Gulandomu, Sumanbo‘yu, Sumanso,

Parichehru, Parizodu, Parivash,

Paripaykar zihi o‘n ismi dilkash.

Bu o'rinda A.Navoiy asarlarida uchrovchi Farhod nomini izohlab o'tish foydali deb o'ylaymiz. Farhod nomiga A.Navoiy uning otasi tomonidan farhimmat, hod-baxt, davlat deb izoh beradi. Shoirning o'zi esa Farhod–firoq, rashk, hajr, dard kabi so'zlarning bosh harflari yig'indisidan tashkil topgan deb muammo beradi.

“Yulduzli tunlar” romanida qo'llanilgan ismlar ham Navoiy bobomiz aytganlaridek, yozuvchi tomonidan shunday mahorat bilan tanlanganki, asar qahramonining barcha harakatlari ismiga mos ravishda tanlangan. Bunga misol qilib Bobur obrazini olishimiz mumkin. Ushbu qahramonning oilasiga bo'lgan munosabatii, Vatanga bo'lgan sadoqati, atrofidagi odamlarga bo'lgan muomalasidan uning haqiqiy mard, fidoiy, jannati inson ekanligini ko'rishimiz mumkin.

3.2. JOY NOMLARI

Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o'rganish, avvalo, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo'lsa, so'ngra yozuvchi uslubi manerasini belgilash uchun ham ahamiyatlidir. Shu sababli romanda yozuvchi tomonidan qo'llanilgan toponimlarni o'rganish toponimiya sohasida yana bir yangilik bo'lib o'z o'rniga ega bo'ladi degan umiddamiz. Davr bilan hamnafas bo'lgan yozuvchi Pirimqul Qodirov davr voqealarini hikoya qilar ekan, bevosita tasvirlanayotgan voqealar yuzaga kelgan joy, sharoit bilan kitobxonni to'liq tanishtirishga harakat qiladi. Har bir tasvirlanayotgan joy nomini birma bir tasvirlab o'tadi.

“Yulduzli tunlar” romanida ham turli xil onomastik birliklar qo'llanilgan. Jumladan, toponimlar shular jumlasidandir. Asarda qo'llanilgan joy nomlarini bir necha guruhlariga bo'lib tasniflash maqsadga muvofiqdir. Ana shu guruhlariga bo'lish orqali yozuvchi asosan, qanday toponimlarni asarni yaratish davomida qo'llaganini bilib olamiz, ajratilgan ushbu tasnifda o'sha davrda xos bo'lgan toponimlardan foydalanilgan. Olib borgan izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, asarda qo'llangan joy nomlari haqida yozuvchi to'laqonli ravishda ma'lumotga ega

boʻlgan va izohlarini keltirib oʻtishga ham harakat qilgan. Biz “Yulduzli tunlar” romanida qoʻllangan toponimlarni quyidagicha guruhlariga ajratdik:

1. Davlat nomlari: 4 ta: Fargʻona katta vodiylar boʻlsa ham, ammo Movarounnahrning faqat bir qismi ekanini gapira boshladi [57, 82].

2. Shahar nomlari: 48 ta: Samarqand podshosi Qoʻqonni bosib olib, qoʻshniga talatgan va Margʻilonga hujum qilgan edi [57, 5].

3. Qishloq nomlari: 7 ta: Tohir Andijon yaqinidagi Xoʻja Katta degan qishloqda boy bir odamga aravakash boʻlib yollangan [57, 242].

4. Mahalla nomlari: 7 ta: Shahar chetida Nazargoh mahalloti joylashgan [57, 251].

5. Togʻ nomlari: 14 ta: Uzoqdan yastanib turgan Zanjirgoh togʻlarining baland choʻqqilariga qor tushgan edi [57, 272].

6. Daryo nomlari: 12 ta: Bundan oldingi yurishda Kashmirdan oqib keladigan Jilom daryosi boʻyidagi Bhira Hindubekning harakatlari bilan jangsiz olinib Bobur oʻzini hokim tayinlagan edi [57, 374].

7. Qabrston nomlari: 1 ta: Murtazo Ali mozoriga, - dedi [57, 455].

8. Bogʻ nomlari: 8 ta: Shohruh mirzo davrida mashhur boʻlgan Bogʻi Safidda Muzaffar Mirzo Bobur sharafiga katta ziyofat berdi [57, 261].

9. Rayon nomi: 1 ta: Xonning bir pora qoʻshini Xurosonning Chehektu navoxisini (rayon) bosgani toʻgʻrisida xabar keldi. [57, 260].

10. Viloyat nomi: 2 ta: Bobur Glavlor viloyatida yuz yildan beri hokimlik qilib juda katta boylik orttirgan roja Bikramadityaning hashamatli qasrini koʻz oldiga keltirdi. [57, 398].

Ushbu guruhlanishdan shu narsa maʼlumki, yozuvchi asosan, asar voqealari yuz bergan va uning atrofidagi hududlarni toʻlaqonli ravishda oʻrgangan. Buni joy nomini tasvirlanish uslubiga qarab bilish mumkin.

Har bir joy nomi orqali maʼlum bir xalqning tarixi, urf-odati, madaniyati aks etgan boʻladi, shu jumladan, “Yulduzli tunlar” romanida qoʻllanilgan joy nomlarida ham yoqorida taʼkidlangan barcha xususiyatlar oʻz aksini topgan.

Boburning jang-u jadallarda kechgan hayoti va undan keyingi voqealar bilan tanish bo'lgan Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romanida qo'llagan toponimlari orqali kitobxonni yangi ma'lumotlar bilan tanishtirib o'tishga harakat qiladi. Voqea-hodisalar sodir bo'lgan toponimlarni yozuvchi juda yaxshi bilganligi asarda joy nomlari haqida bergan ma'lumotlaridan sezilib turadi. Tasvirda keltirilgan har bir toponimni yozuvchi asar davomida izohlab berishga harakat qilgan. Bunday real toponimik nomlar tasvirning jonli va badiiy chiqishini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ba'zan yozuvchi turli harakat va voqea-hodisalar bo'lib o'tgan joy nomlarini xalq tilida qanqay atalishi haqida ham ma'lumot berib o'tadi.

"Yulduzli tunlar" romanida yozuvchi tomonidan asosan, qo'llanilgan toponimlar haqida asarni o'qish davomida har bir kitobxon ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lib boraveradi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, asarda qo'llanilgan toponimlarning qayerda, qanday joylashganiga qarab shu toponimga nom qo'yilgan." Andijondan tuyalarga ortib kelingan hashamatli chodirlar Buratog' etagidan oqib o'tadigan Jannatariq bo'yiga o'rnatildi [57,67]. Keltirilgan ushbu parchada tog'ning qanday joylashganiga qarab unga nom berilgan, ya'ni Buratog' chindan ham tekis joyda cho'k tushib yotgan ulkan tuyaga o'xshab ketadi. Shu sababli o'sha yerda yashovchi aholi ana shu xususiyatiga qarab shunday nom berishgan bo'lsa ajab emas.

Ma'lumki, narsa va hodisalarni chuqur o'rganish uni tasnif etishdan, ya'ni uning boshqa narsa va hodisalar sistemasida tutgan o'rnini, ular bilan o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdan boshlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, atoqli otlarning ko'rinishi bo'lgan toponimlar ifodalagan ma'noni o'zaro bir-biriga qiyoslash toponimlarning til lug'at tarkibidagi o'rnini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Toponimlar ma'lum obyektни ifodalovchi adres, uni ko'rsatuvchi element va ayni vaqtda shu obyekt haqida ma'lumot beruvchi birlik. Bu kabi joy nomlari lug'at boyligining yanada rivojlanib talqin etishiga yordam beradi va ayni paytda tariximizni anglash, kelajak avlodga yetkazish yo'lidagi amaliy dasturdir.

Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar ” romanida faqat yirik joy nomlari emas, balki eng kichik dala nomlari ko‘cha, mahalla, tepaliklar nomlari ham qiziqtirgan. Ana shunday kichik obyektlar mikrotoponimiyada o‘rganiladi. Yozuvchi mikrotoponimiyalarga e‘tibor qaratar ekan, har bir nomni izohini berib o‘tishga harakat qiladi. Yozuvchi tomonidan qo‘llangan bu kabi nomlar asar tilining yanada shiraki va ayni paytda ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Pirimqul Qodirov asarlaridagi toponimlar tuzilishiga ko‘ra sodda emas, shu sababli asosiy ko‘pchiligini ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlarning turli xil sintaktik munosabatlar vositasida birikishi va qo‘shilishidan tarkib topgan qo‘shma toponimlar tashkil etadi. Bularga misol qilib asarda qo‘llanilgan bir qancha toponimlarni aytishimiz mumkin. Sodda toponimlarga asarda qo‘llanilgan Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona va boshqa joy nomlarini kiritishimiz mumkin. Qo‘shma toponimlarga esa Issiqko‘l, Qilko‘prik, Iskandarko‘l, Xo‘ja Katta kabi toponimlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Chunki bunday so‘zlar ikkita mustaqil so‘zning birlashishidan yangi so‘z, ya’ni joy nomi hosil bo‘lgan. Issiq va ko‘l so‘zlari alohida alohida so‘zlar hisoblanadi, ularning birikishi orqali esa joy nomi yuzaga kelgan.

Toponimiyaga oid asarlardan ma’lumki, qadim zamonda ko‘cha va mahalla nomlari shu ko‘cha yoki mahallada yashovchi kishilarning kasb-kori, millati, turmushi va mashg‘ul bo‘lgan hunariga qarab nomlangan. Pirimqul Qodirov asarlaridagi ko‘pgina joy nomlari ham shu mahallada yashovchilarning kasb-kori bilan bog‘lab qo‘yilganligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, ma’lum ko‘cha yoki mahalla nomidanoq bu yerda yashovchi aholining mashg‘ulotini bilish mumkin. Ayniqsa, shahar yoki qishloq nomi o‘sha yerning biror bir buyumi yoxud tuzilishi jihatiga qarab nom berilgan va aholi o‘rtasida mashhur bo‘lgan. Romandan olingan quyidagi parchalar fikrimiz dalilidir: Qal’a tashqarisidagi mashhur Bog‘i Jahonoro, Bog‘i muxtor, Bog‘i Zubayda, Bog‘i chamanlardagi uzumzor va anorzorlar yoz bo‘yi ko‘tarib turgan mevalaridan ayrilib, yakkam-dukkan qovjiroq barglar bilan so‘ppayib qolganlar [57,249].

Keltirilgan ushbu misoldan shu narsa ma'lum bo'ldiki, joy nomlari o'sha yerda mavjud bo'lgan elementlarning mashhurligiga qarab ham belgilanar ekan.

“Yulduzli tunlar” romanida yozuvchi mikrotoponimiyalar bilan bir qatorda makrotoponimiyalardan ham foydalangan, yirik joy nomlarining qo'llanilishi asarni yanada mazmundor bo'lishida yordam bergan. Asosan, davlat nomlari va shahar nomlari va ko'pchilik uchun tanish bo'lgan nomlar bunga misol bo'lishi mumkin. “Hirotga Qandahor tomondan kelishda yo'l bo'yidagi xiyobon va sayrgohlarda o'sgan minglarcha sarvlar, sanobar daraxtlari kuzda ham bahordagidek yashnab turibdi” [57,249]. Ushbu misol orqali yozuvchi Hirot shahrining qayerda joylashganiga qarab borayotgan manzilini belgilab olyapti, shundan ko'rinib turibdiki, joy nomlari ma'lum bir joyga yo'nalganlik ma'nosini ham anglatar ekan.

Bundan tashqari yozuvchi tomonidan qo'llanilgan toponimlarning qanday joylashgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan, qishloq nomlariga e'tibor qaratgan yozuvchining nazaridan davlat yoki dam oladigan joy nomlari ham yodidan ko'tarilmadi, bu toponimlar orqali asarda yoritilishi kerak bo'lgan voqealar tasvirlanadi. “Yulduzli tunlar” romanining yanada mazmundor bo'lishi uchun xizmat qiladi. Toponimlar faqat ma'lum bir orinni egallashdan tashqari bir qancha ma'lumotlarni ham anglatar ekan, yuqoridagi mulohazalar fikrimiz dalilidir.

“Yulduzli tunlar” romanidagi toponimlar o'zining sodda tili, kitobxonlarga tushunarlilik tomoni bilan alohida kasb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, romanda qo'llangan qo'shma otdan tashkil topgan joy nomlari hamma uchun birdek sodda o'qilishi bilan ajralib turadi. Bularga misol qilib mahalla va masjid-madrasa nomlarin olishimiz mumkin. Chunki shu yerda yashovchi aholi tomonidan beriluvchi nomlar shu yerda joylashgan toponimlarning faqatgina o'zida xos bo'lgan xususiyati, xarakteriga qarab belgilanadi.

Asarda qo'llangan toponimlar haqida shuni aytishimiz mumkinki, toponimlarda pozitivlik, geografik reallik aks etadi. Bulardagi informatsion potentsiallik kuchli bo'ladi. Romandagi joy nomlari o'sha davrga xos bo'lgan

ma'lum bir voqelikdagi geografik reallikni ifodalab keladi. Buning sababi shundan iboratki, asar voqealari yuz bergan toponimlar tariximizda sodir bo'lgan muhim voqealarni yoritishga xizmat qiladi. Asarda o'rgangan toponimlarimiz ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun manba bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Toponimlar til tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, uni alohida o'rganish lozim.

Toponimlarni hosil qilishda gidronimlarning o'рни beqiyosdir. Asarda o'rgangan suvliklar nomini biz bir qancha guruhlariga bo'lib, shular orqali fikrimizni oydinlashtirishga harakat qildik.

a. Daryo nomi: 12 ta: Shayboniyxon ellik ming qo'shin bilan Murg'ob daryosidan o'tib, Xurosonga bostirib kirdi [57, 273].

b. Ariq nomi 4 ta: Bo'zsuv va Salor arig'ining bo'ylaridagi mevali daraxtlar kuz yomg'irida yuvingan [57,214].

Keltirilgan ushbu suvliklar nomidan shu narsa ma'lumki, asarda qo'llangan daryo, ko'l va ariq nomlari tuzilishi, nomlanishi, qayerda joylashganligi hamda bajarayotgan vazifasi bilan bir-biridan farq qiladi. Asarda keltirilgan misollarda ham ularning vazifasi turli xil va ayni paytda bir maqsad yo'lida xizmat qiladi. Insoniyatga yordam berish yo'lidagi ma'lum bir vazifasini gidronimlar o'taydi.

XULOSA

Pirimqul Qodirov o'zbek adabiyoti tarixida alohida nom qoldirgan ijodkordir. Pirimqul Qodirov o'z asarlarida hayotni, bor haqiqatni bo'yamasdan, ortiqcha bo'yoqlarsiz tasvirlaydi. Asarlarida pok sevgi, insoniy muhabbat, tarixiy haqiqatni qanday bo'lsa shu holida aks ettirishga alohida urg'u beriladi. Cho'lpon iborasi bilan aytganda, Pirimqul Qodirov "boshini zo'r ishga berib qo'ygan" ijodkorlardan hisoblanadi.

"Yulduzli tunlar" asari o'ziga xos til xususiyatlariga ega. Undagi tabiat manzaralari, insonlar xarakterini chizishdagi so'zlar o'z o'rnida, ma'no jihatdan butunligi bilan ajralib turadi. Asar tilidagi atoqli otlar ham o'ziga xos semantik-uslubiy vazifa bajarganligining guvohi bo'lish mumkin. Asardagi atoqli otlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga asos bo'ldi:

1. Asarda to'rt yuz ellikka yaqin atoqli ot ishlatilgan.
2. Asardagi asosiy atoqli otlarni toponimlar, antroponimlar, gidronim tashkil etadi.
3. Asar tilida qo'llangan atoqli otlar o'zbek, arab, fors-tojik tillarga mansub bo'lib, ularda ba'zan o'zbek+arab, arab+o'zbek, o'zbek+tojik, tojik+o'zbek kabi yasaliş shakllari ham uchraydi.
4. Toponimlarning oykonim, urbonim, antropotoponim, gidrotoponim va boshqa shakllari qo'llangan.
5. Asarda antroponimlarning ismi, familiya, ota ismi, laqab kabi ichki turlaridan ham keng foydalanilgan.
6. Asar tilida suv havzalarining nomini atovchi gidronimlar ham uchraydi. Gidronimlarning daryo, kanal, sharshara va ariq nomlari kabi turlari ham tez-tez ko'zga tashlanadi.
7. Asarda qo'llangan toponim va gidronimlardan tasvirlangan hudud geografiyasi haqida to'liq tasavvur hosil qilish mumkin.
8. Kuzatishlar asardagi atoqli otlarning tuzilishiga ko'ra sodda (tub va yasama), qo'shma, birikmali ekanligini ko'rsatdi.

9. Asardagi atoqli otlar leksik-semantik (onomastik konversiya), affiksatsiya, sintaktik (kompozitsiya) usullar vositasida yasalgan.

10. “Yulduzli tunlar” romanida qo‘llangan atoqli otlar yanada kattaroq tadqiqot uchun material bo‘lib xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тарақиёти йўли. Тошкент. Ўзбекистон, 1992 йил 71-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “ Географик объектларнинг номлари тўғрисида”. Ушбу Қонун «Халқ сўзи» газетасининг 2011 йил 13 октябрдаги 198 (5365)-сонида эълон қилинган.

Monografiya va alohida nashrlar:

3. Антропонимика. Москва, 1970, 230 с.
4. Атаниязов.С. Туркменистаннинг топонимияси Ашхабад, 1981, 26-бет
5. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, “Фан”, 1985, 199 б.
6. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Т.: 1985, 107 б.
7. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. Тошкент, 1982, 66 б.
8. Мусин Р. Сўз мағзидан ер бағрига. Тошкент, 1967, 79 б.
9. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимияси (Дастур) Тошкент, 1988, 34 б.
10. Ономастика Узбекистана. Ташкент, 1989, 170 с.
11. Ономастика Ср. Азии. Москва, 1987, 27 с.
12. Оронимика. Москва, 1969, 174 б.
13. Охунов Н. Жой номлари таъбири. Тошкент, 1994, 88 б.
14. Охунов Н. Жойлар ва номлар Тошкент, 1985, 95 б.
15. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. Тошкент, 1985, 173 б.
16. Никонов В. Введению в топонимику. Москва, 1966 14 с.
17. Эназаров Т. Топонимларнинг этимологик тадқиқ қилишнинг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари. (Туркий топонимлар мисолида) 1-китоб, Т.: 2001, 78 б.
18. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 томлик, 1-том, 425-б.
19. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма Т.: 2005. 58 б.

20. Қораев С. Топонимика – жой номлари ҳақидаги фан. Тошкент, 1980, 80 б.

21. Қораев С. Тошкент топонимлари. Тошкент, 1991, 118 б.

22. Ҳадислар. Ахлоқ-одобга оид ҳадис мажмуалари. Тошкент, 1990, 148-б.

23. Ҳадис. 4-том. Тошкент, 1992, 132-б.

24. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Т.: 1965, 178 б.

Dissertasiyalar va avtoreferatlar:

25. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган катлами. Номз.диссер.автореф. Тошкент, 1999, 22 б.

26. Ёқубов Ч. Навоий асарлари онамастикаси. Номз.диссер.автореф. Тошкент, 1994, 22 б.

27. Тиллаева М. Хоразм онамастикасининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” онамастикасига қиёслаш асосида). Номз.диссер.автореф. Тошкент, 2007, 23 б.

28. Турдибеков М. Абулғози Баҳодирхоннинг “Шажараи турк” асари онамастикаси. Номз.диссер.автореф. Тошкент, 2001, 22 б.

29. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул дostonлари асосида). Номз.дисс.автореф. Тошкент, 1998, 21 б.

Ilmiy maqolalar:

30. Авлакулов Я.И. Лақаблар ва тахаллуслар ҳақида мулоҳазалар // Личностно ориентированный подход к современному обучению. – Ташкент, 2008. – Ч.11. – С.133-137.

31. Бегматов Э, Орипов. Ў. Микротопоним тушунчаси ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. 2000, 3-сон, 21-26 б.

32. Бегматов Э., Жумаев А., Сатторов Ғ. Ўзбек онамастик терминологияси ва уни нормалаш проблемалари//Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. Тошкент, “Фан”, 1986, 8-10-б.

33. Дадахонова Т. Чеварчилик лексикасида ономастик ва топонимик номлар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1962, 1-сон, 67-70-б.

34. Дўсимов З. Топономик индикаторлар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, 6-сон, 18-б.

35. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари//Ўзбек тили ва адабиёти. 1985, 2-сон, 58-61 б.

36. Кенжаева С. Бадиий асардаги исмлар бадиияти//Мен элимнинг юрагида яшайман... Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. – Андижон, 2009. 56-57-б.

37. Латипова Х. Жой номларини ифодаловчи сўзлар синонимияси// Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, 6-сон, 45-48 б.

38. Латипова Х. Жой номларини ифодаловчи сўзлар синонимияси// Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, 6-сон, 45-48 б.

39. Муҳаммаджонов А. Фарғона номининг маъносига доир//Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, 7-сон, 9-11-б.

40. Муҳаммаджонов А. «Андикон, Андигон ва Андижон» топонимлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 2-сон, 62-67-б

41. Нафасов Т. Ўзбек топонимикаси терминларининг шаклланиши ва тараққиёти//Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. Тошкент, “Фан”, 1986, 52-55-б.

42. Нуритдинова Р. Атоқли отларнинг грамматик тузилиши ва ясалишига оид терминлар// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. 6-сон, 88-90-б.

43. Нуритдинова Р. «Апеллятив» термини ҳақида// Жой номлари халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси. Навоий, 1998. 54-б.

44. Нуритдинова Р. Ўзбек номшунослиги терминологиясининг баъзи масалалари// Тил ва истиқлол. ЎзДЖТУ. Тошкент, 2004. 130-132-б.

45. Охунов Н. Жой номларининг синтактик-лексик усул билан ясалиши // Тил ва адабиёт таълими. 1997, 5-6-сон, 66-69-б.

46. Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 4-сон, 72-76-б.

Lugʻatlar:

47. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Т.: 1991, 417 б.
48. Бегматов Э, Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган: 2006, 152 б.
49. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. Т.: 1966, 121 б.
50. Бегматов Э. Исм чиройи. Тошкент, 1994, 90 б.
51. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. Тошкент, 1998, 116 б.
52. Бегматов Э., Кенжаева С. Ўзбек исмлари маъноси. Ўқув изоҳли луғат. Тошкент, “Фан”, 2007, 94 б.
53. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1977, 87 б.
54. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988, 316 б.
55. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. Қарши, 1993, 190 б.
56. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, 2000, 599 б.

Badiiy asarlar:

57. Пиримкул Кодиров. Юлдузли Тунлар. Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. -2012, 558 б.

MUNDARIJA

1	Reja	13
2	Ishning umumiy tavsifi	14
3	1-bob. Pirimqul Qodirov va uning “Yulduzli tunlar” asarining o‘rganilishi	17
4	1.1 Pirimqul Qodirov va uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni	17
5	1.2. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari haqida	18
6	2-bob. O‘zbek tilining onomastik leksikasi	23
7	2.1. O‘zbek tilida antroponimlar	24
8	2.2. O‘zbek tilida toponimlar	38
9	2.3. O‘zbek tilida gidronimlar	42
10	3-bob. “Yulduzli tunlar” asaridagi onomasionimlar tahlili	45
11	3.1. Antroponimlar	45
12	3.2. Joy nomlari	52
13	Xulosa	58
14	Foydalanilgan adabiyotlar	60